

QUROQ

Qissa

Xo-osh, endi sizga bir hangomani aytib bersam, boʻlmagan gap deysiz, toʻgʻri oylaysiz, shu gapni boshqa birovdan eshitganimda oʻzim ham ishonmas edim, odamlarni gʻol deydi shekilli bu odam yo oʻzini gʻollikka solyaptimi deb, ensam qotardi balki, lekin sizni aldamay deb koʻrganimga munkir kelsam, bu ham toʻgʻri boʻlmas. Keyin, gap ishonishda emas, hamma ishongan gap toʻgʻri chiqqanida, oʻzingizga ma'lum, bunaqa yurmagan, olam gulistonda yashayotgan boʻlur edik. Quruq ishonch aldanishdan boshqa nima beradi? Lekin u ham bir sorgʻich, aldanishga orgatib qoʻyadi, aldanmasangiz, qatordan tushirib yuborishgandek boʻlaverasiz. Gapim tegib ketmasin, bilaman, oʻzingiz ham toriqqansiz bunaqa gaplardan, bilgan odam toriqadi, albatta. Ana, shuning uchun xitlanavermay, boʻlar ekan-da shunaqa, ajab-ey, qani, eshitaylikchi, shuncha eshitganimizning biri-da, deb kongilga kenglik bering, bu bir gurung, diqqatingizni yozadi, kamina ham oʻgʻziga kelganini qoʻyib yuboravermas, aytadigan gapimni orqa-oldimga qarab, sizning nima deyishingizga toʻgʻrilab gapiraman. Balki tagidan boshqa gaplar chiqib qolar.

Albatta, ishonish qiyin voqea otirikka tortadi, lekin undan-bundan gurung qurib oʻtirganda yoʻgidan kora shuning ham bori yaxshi, deb qoʻyadi gapkashlar; men ham yana bir marta xo-osh deb boshlasam, shu gap boʻldi, aytmasam tinchimni topolmayman. Xullasi, oʻz uyimda, oʻng qoʻlimda burda non, qon bosimim oʻynab tursa ham, nafs oʻlsin, - balodur, yongʻon oʻtga solodur, - parra qazi, chap qoʻlim bilan katta qirmizi luʻgatni varaqlab otirib (shu joyini unutmang), misolga olingan “Mard boʻlsang, Eskijuvada hangra” degan gapga toʻxtab, juda topib aytilgan ekan, hozir hech kim ishlatmaydi, hangrashga boʻlakcha ma'no yuklasa boʻladi, oʻzingiz ham bir xil oʻgʻzi buzuq odamlar xuddi hangrab yuradigandek tuyuladi, buni oʻxshatib biron joyda qoʻllarman deb, endi tagiga chizmoqchi edim, uyimga kirib kelsa! Kim yo nimaligi kallamga birdan kirmabdi – eshak! Ha, eshakning gʻirt oʻzi! Kozim bilan koʻrib, oʻzim ishonmadim! Kapalagim uchib ketay deganda tutib qoldim. Men shaharda, nafaqaga chiqib, endi butun ermagi qoʻgoz qoralash bilan kitob mutolaasi boʻlgan odam, bu esa hu chang bocgan qishloqda qolib ketgan bir eshak. Tort oyoqlab kelib turibdi, paqqos! Oʻzingiz tasavvur qiling, parketda eskiroq boʻlsa-da qimmat gilam, divan, yumshoqkursi, yana derazalarda buyurtma tikilgan shokila pardalar (shuni yomon koʻraman), oyoqni echib kiradigan joyga tuyoʻgʻini bosib kirib kelsa!

Esankiradim, taʻgin qoʻlimda qalam deng. Sal oʻzimni yiʻgib, bu nima gustohlik, ellik yil burun bosilgan eski luʻgatdan shop chiqib kelib, xayolimni buzsa, deb ichimda

yoʻzğirdim. Boshqa hayvonlar ham bor-ku bu kitobda, ammo birontasi bu yoqqa chiqib kelmaydi, a, bu nimadan quruq qolgan! Ōzi shu boʻlmaydigan narsani korsam, el boʻlyapti-ku deb unga ishonib tursa ham chekkam tirishadi, lekin ishonganlarning yuzi, koʻpchilik nima desa – shu, bori emas deb, inq etmay tishlanib turaveraman. Ha endi, bunaqa gaplarni eshak misolida aytish noqulay-u, lekin ming hay demay, bu bekorga kelmagan, uzunquloq kalla bilan shuncha yoʻldan shaharda uyimga yoʻl topib topibdimi, biron karomati bor, na iloj, bilmaganimda ma'quli shu, biron yoʻli koʻrinar deb, oʻzimni vazminlikka soldim.

U avvaliga bir nimalarga choʻgʻlanib, tumshuʻgʻini choʻzdi, lekin shu asnoda uyimga alanglab, bu erda toʻgʻri kelmasligiga aqli etdi choʻgi, kallasini pastga tashlab, quloqlarini salanglatdi. Qarang-ey, odam bor joyga boryapman, u yoq-bu yoʻgʻimni toʻgʻrilab olay deb, qora tuproqqami, kulgami xop aʻgnagan, tozalangani shudir-da bu turqi betarovatning; shundan oq toldan chopib, xom teri tortib yasalgan egari yonboshga oʻgʻib qolgan. Esingizdami, qoshi yoʻq hisobi past, egar deb ham boʻlmaydi, tagiga tiqsa, yosh bolaning qoʻli ham kirishi mahol? Beshinchi sinfdaligimizda navroʻztepalik Saidvali noskadisini shunga tiqib yurar ekan, bilmaganmiz. Ismoil - zehni otkir, qarab yurib, topdi, topganiga Nosir muallimimizdan suyunchi oldi. Nosir muallim Saidvalining eshagidagi egarning qoshi tagiga ikki barmoʻgʻining uchini tiqib, noskadini chiqardi-da, koʻrganlar, ya'ni bizni, irgansin deb, aftini atay mujmaytirib, yerga urdi, sinfimizning eshigi oldi kirib-chiqib bosaverganimizdan yomʻgʻir ham yuqmaydigan zarang-tosh boʻlib ketgan edi, noskadi maydalanib, urilgan joyi koʻkarib qoldi. Nosini tergilab olmasin taʻgin dedimi, ustidan shalpillatib tupurdi ham. Ismoil muallimga pishang boʻlib, u ham borib oʻsha yerni tepkiladi. Chinni koʻzachadek gul solingan haqiqiy eski kadicha, nariroqqa tushgan boʻlagini olib qarasak, naqshlari, nos isi kelib tursa ham, qizgʻish gulli xitoyi piyola siniʻgiga oʻxshar edi, tomosha qilib achindik, achindik juda, uchib ketgan yana uch-tortta boʻlakni bir-biriga ulab koʻrdik, boʻlmadi. Noskadiga ham shunaqa chiroyli bezak beradimi, a, deb xunobimiz oshdi. Bunaqa kadichani hech kim ekmay qoʻygan, oshkadiga oʻxshab oʻsadi, palagi soʻriga chiqib tugadi deb eshitamiz, xolos, koʻrmaganmiz; Saidvalining buvisiga ham momoenasidan meros otgan boʻlib, u oʻgʻirlab tutib yurgan ekan, kuyganidan irillab yiʻgladi. Qizigʻ-ey, shunaqa ʻgalati yiʻglardi, oʻzini koʻrmay yiʻgisini eshitgan odam seskanib tushardi.

Nosir muallim Saidvalini oldindan urishib keladi, yana urishdi, tak-tak boshiga chertdi, chertkisi qoʻrgʻoshin qoʻlamidek oʻgʻir, naq tovongacha oyib tushardi, bor gap, bu ham kor qilmagandan keyin urishga oʻtdi, yomon urar edi lekin, insofi yoʻq, qoʻli bilan yoʻlga solardi-da. Saidvali bechoraning nima joni bor, qol tegmasidan dumalaydi, chaqqon oʻrmalab partaning tagiga kirib ketadi, koʻzi quruq, odamning yuragini ezib viʻgʻillaydi, lekin qattiq oʻrgangan ekan, shuncha kaltak bilan tashlamadi, iʻgʻ-viʻgʻ, oʻninchini bitirgunimizcha oʻlmay, - odamning joni-ey! - keyin ham yashab ketaverdi! Ha, biz tayin oʻladi der edik-da, non tegmagan oriq, oriq ham emas, tirriq, poʻsti borib ustuxoniga yopishgan, koʻhna kasalning yopiʻgidan xabari bor-ov degan gumonimiz ham aniq; u paytlari biz tomonda

bunaqa kasalning uruği kōp, yopiği bildirmaydi, kalta yotaltirib yuraveradi, ochiği esa kopga qoymaydi: binoyidek yurgan odam kun sayin rangi qochib, beti sōrrayib, gavdasi bukilib, ketib boraveradi. Shunga kasal bōlmaganlar ham vahimakasal. Saidvali ōzi shu ahvolda. yana nos otadi. Nahs bosgurning, chakmazagi ham bor deymiz, har tanaffusda badrafga qatnaydi; oğzini artib chiqishidan tuflab kelayotganini kōramiz, ammo qaydan olib chekadi - boshimiz garang; muallimlar axtardi, biz qarab otirmadik, qiziqish-da, najosat joyda gōyibdan tushadimi yo ōrtani tōsgan taxta devordagi poylaydigan teshigimizdan qizlar beradimi, bu ham bor gap, endi aytsa bōlar, ishqilib, oğzida nosi bōlgan, ammo noskadi yōq, na jildida, na lippasida; pachoq qalpoğini echib, astarining piltasigacha sitib qaraganmiz, soraganda miq etmaydi, faqat beti jiyiriladi, qirriqning boplاديمmi deb tirjaygani shu. Ismoil bu yerda boshqa bir gap bor deb, payiga tushgan-da, ammo-lekin buning shumligi undan ham otib tushardi, bōlmasa, hammamiz Saidvalining eshakka mehr qoyishiga hayron, es joyidami, kalla ketmaganmi deb. Har tanaffusda badrafga kirishdan oldin borib ayilini qayta tortadi, silab-siypaydi. “Ha, jōra, maktab bōlsin, ketami-iz”, deb qoyadi; - jōra-ya! - bizda ōzi birov eshakni hayvon ōrnida kormaydi, qishda moldan ortgan nōshxurtni ham bermay, ketiga tepib haydaydi dalaga, pichan tortilganda bu ham umtilsam deydi-da; jōra emish, ōrgildim! - a, jōrang bōlsa, minma ustiga, otnikidek gilam jabduq yop-da, oldiga tushib jilovidan etakla! Noskadi egarning qoshida bōlishi hech birovimizning kallamizga kelmabdi. Eshakka nimani uqtirsa bu deb qarab turamiz, u esa bizga chappa ōgirilib shippa kaplayverar ekan. Yana aytma deb erkalatgandek, tizzası bilan eshakning biqiniga turtib qoyadi. Yuribmiz ottizimiz, nashavandning ōzi tupirkilos, nos battar qiladi, bechoraning rizqi qiyilgan, e-e, ishqilib, qatorimizda yurgani yaxshi edi-da, deb ichimiz achib. Noskadini topib yōqotsak, nasibasi uzilmas edi deb juda ishonamiz. Qayda, noskashligini qoymadi, jon ham savil ekan, Azroildan bir otm otib, keyin tupurib olay, keyin ixtiyor ōzingda, deb soraganmi, shu uzmay shu-shu-shilagan koyi hammamizni ahmoq qilib, aytdim-ku, maktabni bitirdi, traktor haydadi, bola-chaqalik bōldi, men hayotda uloqib ketdim, u qishloğidan chiqmadi, qaytib kōrishmadik.

Yashayotgandir hali ham nosini otib deb yurardim, yaqinda sinfdoshlarim qidirib kelib qoldi, shunda sorasam, Vafoqul: “E-e, sen eshitmagansan, hay, kōkarib chiqqaniga ham... Ismoil, uch yil bōldimi, yo tort?”, dedi. Oltmishdan oshibmiz, hali ham senlaydi, yaqinligimizni bildirib turarmish. Ha, mayli, yaqinlik shu senlashsiz bōlmasa, senlashaqolaylik. Ishqilib, kōkarib chiqdi desa, ōyimga nosning kōki kelib: “Shu nosdan ketdimi?” deb sorabman.. “Endi, nos chekkan ōlaversa, odam qoladimi! Ikki ming sakkizda qattiq qor yoğdi-ku, zahar sovuq, Mōltiptan kelayotib yōlda yiqilib qolgan. Ōpka ketgan ōshanda. Kopga ham bormadi keyin”, dedi Ismoil uncha xushlamay. “Nimaga yiqiladi? Ōsha nimjonligi edimi?”, deb yana soddalik qilibman. Shunaqa shoshib ōylashim bor. Ismoil bilan Vafoqul iljayib qoydi, odam ōlgan bōlsa, bular nimaga kuladi deb gashlanib indamadim. “Nimjon-a! Qovjiroq bōlsayam pishiq odam edi. E-e, tuproq etkizmasin, kōzga qarab ichish kerak edi-da”, dedi Vafoqul. “Nimaga ichadi?” deb

soradim;, boshiga bir ğam tushgan ekan-da, deb oylabman. “Obbo, - dedi Vafoqul, - nimaga ichadi - ichadi-da. Qishloqdan toza chiqib ketibsan-ku”.

Qishloqdan chiqib ketganimni o'zim ham bilaman, qirq yil bo'lyapti, lekin u yoqdan chiqmagan odam ichib olaveradimi? Bularning gapini eshitsang, hazilga dumalaganga o'xshaydi. Yana nima emish: rozi-rizolik tilashganda bosh uchimga shampan shishasini nosga toldirib qo'yish eslaringdan chiqmasin, diqqatim oshganlarida chekib yotaman, deb tayinlagan. Astaġfirulloh, Vafoqulning gapiga o'zimning ham ichimdan ihi-ihida degan tovush kelib, labim burilib ketdi. “Qo'yinglar-ey, yaxshi emas”, dedi Rashid ham iljayib. “Ana, badrafga kirib o'tirmaydi, poylaydigan odam yo'q, - deb Vafoqulning yana tili qichidi. – Nosir muallimning shuncha urgani bekor ketdi”. “Hay, hay”, - dedi Rashid chimirilib. Ismoil esa beozor ğashlanib: “Qiziq-da, birov uni olsin deptimi? O'ziga o'zi qilgan. Ko'zingga qarab ichmaydimi!”, - dedi o'ziga o'zi gapirgandek. “Ha-ey, boshqa gapga o'taylik,” - dedi Rashid. “Odam ikkita oyoġining ustida o'zini eplab yurishi kerak”, - dedi Ismoil. “Nos, kop ichgan odamning oyoġidan yomon olib qo'yadida”, - dedi Vafoqul, murosas bilan.

Ismoil yana gapirmoqchi edi, Rashid, aytmasa ham biladi shekilli, qoymadi, “Xuddi ichimizda eshitib otirganday, odamga juda noqulay-e”, -deb Saidvali toġrisidagi hangomani ham kesdi.

Menga ham shunday tuyuldi, Saidvali jiyirchiqli yuzini tirishtirib, qo'lini misoli eshik qisib, ġirmayib qarayotgandek ko'rinib ketdi. Uning ustidan xuddi u olmagandek kuldik, men ham sinfdosh joralarimga qoshildim, kuldimu xotiramning tubidagi qishloqqa chokib ketaverdim. Joralarimning gaplarida menga zimdan ta'na bor edi.

Uyga kelgan shalpanquloqqa qaytadigan bo'lsam, bu ham Saidvali maktabga minib qatnagani bilan bir tus, umuman bu hayvon zotini kop ham farqlamaysiz-ku-ya, lekin mazkur, uyimga kirib kelgani qandaydir juda umumiy bir eshak, hammasiga shundan nusxa olsa bo'lar edi.

Yana tozalanib olay deb, eshikka ishqalanib, chorchopni sovunlab qirtishlamasa ketmaydigan kir qildi, bo'lmasa, ko'cha to'la daraxt, qator simyoġoch, ishqalanishga boshqa joy qurib ketmagan, bir xil ġodayib turadiganlar bor, shunaqa beta'sirki, simyoġochdan ham besh battar, oshalarga ishqalansa bo'lardi! Voh, zor gap chiqdimi! Lekin, ey, namuncha eshakni gapiraman deb, odamga otib ketyapman?

Mayli, bu ham luġatdan. E xullas, uyimda bunga nima bor deb bo'gilganimdan eb turgan luqmam ham tomoġimda qoldi, o'tmadi – o'ldimmi endi, eshakka qarab qazi chayna-ab otirsam. Ot bo'lsa ham boshqa gap edi. Ot – vafodor do'st, mingan odamning ko'rkida, goshti halol. Bu bir yuviqsiz...

Shu gaplarni oylagunim hamono u quloġini salanglatgancha salom berib yuborsa! Vo' ajab, eshakdan salom-a, deb ajablanishga ulgurmay, alik olib qoyibman. Ibratini ko'rib xomsiradim-da, hozirgina aytdim-ku, aytmasam ham ko'rasiz, bor shundaylar: odam, lekin salomingizga alikni tilab olasiz, o'la qolsa o'zi oldin

mulozamat korsatmaydi, misol uchun, deylik, qo'shningiz, sizdan besh-olti yosh kichik, tutgan martabasi ham siznikicha baland emas, katta ketib konglini o'g'ritmagansiz, gapingiz doim yaxshi, ammo uni, albatta, sizni emas, muomaladan urib ketgan; hu narida yong'ichqani korgan tulpor yo emga toygan hokiz, torsayib otib ketaveradi, ishqirib ham qoyadi. Burnidagi junigacha tikraygan! Xudoyim farosat ulashganda qisgan, lekin, mana, bizni o'zi yaratib qoyibdi deb, shunga mast, kim qilib yaratgani bilan ishi yo'q. E mahluq, xudoyim sendan boshqalarni ham yaratgan! Yo tavba, hayvondan odamgarchilik kutmaysiz, to'g'ri, lekin, axir, odam mol emas-ku, insonda insonlik farqi bo'lishi kera-ak, deysiz. Ha, mayli, g'iybat yaxshi emas, tilning uzunini ularga ham bergan; peshana-da – qaysi gunohingizga, darvozasi darvozingizga to'g'ri, qaramay desangiz ham, har kuni o'zi ko'zingizga qadaladi, konglingizga ertalabdan xufton soladi. Chidaysiz-da, chidaysiz, hayot bu. O'shalarga: he esh-shak, devorgim keladi-yu, ammo manavi qobilning iltifotini ko'rib, bunga tenglashtirsa, obro'si kotarilib ketadimi deyman-da ularning. Yana o'sha yoqqa otib ketyapman, uzr. Ichidagini engishi qiyin-da odamning. Men ham bir banda, axir. Lekin bir xillar minbarga chiqib olib hangraydi-da, axir.

Ammo, buning ham o'zini har qancha tarbiyali tutgani bilan aytilmagan joyga kirib kelgani, ancha narsani esimga solib, konglimni sal ilitgan bo'lsa-da, ochi'gi, chekkamni tirishtirdi. Hu burunlari, ya'ni eshak mingan paytlarim boshqa gap edi, endi esa shahar tola mashina, uyda ham bor, o'zim haydayman, xullasi, eshaklik ish yo'q, yaqin ortada unga hojratim tushmagan, tushmaydi ham, qishloqda hozir hatto o'qituvchilar ham mingani or qiladi, men ziyolinikida nima yo'qotgan ekan bu, deb diqqatimni oshirdi. Axir, to'g'ri-da, minganim qachonlar edi, hu bolalik cho'g'larim mol boqqanda, otga chiqqanda, somon tashiganda. Esingizda-ya, mushtday boshimiz bilan ot ichida dimiqib o'rganimiz ikki bo'g'ni, - ha-a, kuchan-a-kuchan, turshak polvon, bosh kelma, kota-ar! - yana bir siltov bilan egardan oshirib, tepasiga bo bir bo'g'ni bosib, orqasiga qonib ham olardik; shuni eplaganimizga o'zimiz shishingan, korgan kattalar, ho', barakalla, pishiqligini, deb qaraydi, boycha bir qarichligidan bosh ko'rinmaydi, jonivorning kallasi ham ot ichida, misoli kom-kok g'aramning o'zi, tagidagi tortta tipir-tipir oyo'gi bilan, lam-lum, la-la-lum, uyga qarab yo'l tortadi. G'aramning ichidan ashulasi chiqayotgan o'zingiz.

Bolalik – eshak mingan ashula, ulovdagi hofiz.

Bahorikorda ashulaxonlikka majol yo'q, kiftini oftob kuydirayotgan qirlar hansiraydi, qizigan tandir misoli oqarib, hovur bilan yutaman deydi, ha, qulo'gingizga shunaqa bir och hansirash kelib turadi, kun ti'g'ida jingirtob ot-olan chitir-chitir yonib bergudek, yurak kuyadi, ichishga olib chiqqan suv ham shishada bij'g'ib, takillab qurigan tilning ustida yumaloq dumalaydi, bosmaydi suvsimni, kombayn to'kib ketgan mayda somon o'roqqa ilinmaydi, qo'lda todalash azob, ter quyilib, ko'z achishganidan korganingiz atrof sariq oqova chayqaladi, yaydoq jazirama, ustida jivir-jivir saraton royolari, sal olisda G'ubdin to'gi ham kok buruqsaydi; boyingdan ikki barobar katta-katta qanorni miqtilab tepib joylab, matashtirib eshakka ortib, - ayni ha-hiylab yerdan uzgan payti bu xonasallot

(alamdan sokinardik) yurib ketmasa – ustiga yana bir qanorni kondalang yotqizib olguncha, eh-he, bu azoblarga chillakchop oyoqlari dir-dir qaltirasa ham faqat bolagina dosh beradi. Hatto sofitorğay ham korgan koriga ishonmay uchishni esdan chiqarib qochmay turaveradi. Hay polvon, hay eti ustixoniga yopishgan alpomish! Ehtiyot bo'l, zor kelmasin – ertalab girdoliga toygansan! Turish berish kerak, turish.

Eshak boyaqish, biqiniga tepsa ham, boyniga xalachop mixini tiqsa ham, turib beradi, dod demay kotarib ketaveradi, chidamdan bergan! Bir tovush chiqaray desang, charchaganidan nafas yurakka tushib ketgan, qoshiq ham osha ichkari yoqda nuqul inqillaydi, xolos. Faqat ix-ix, keyin pastgina yalingan tovushda: ha, jonivor, ha jonivor... Bir ketini kotarib tashlasa-ku, shuncha g'ayrat bir pul, lekin unda bolaning mehnati uvol ketishini shu ham biladi.

Ana shularni eslaganda xayol qochadi-da, xayol, qaeqlargadir ketib, achchiği yillar portanasida takka chokib, shirini qalqib yuzalab, irmoq-irmoq yodimga oqib kiradi. Mehnatning tagidan ormalab, hech bir mashaqqatga boyin bermay, yoruqqa umtilavergan bolalik... Uning yukini elkalamagan qishloq bolasi yoq. Kop orib qoyib, boğlar katta bolib ketib, ortishga kuch etmagan paytlari hammasini tashlab, yerga otirib olib baqirib sokinganlarimiz esingizdami! Ih-ih deb yiglab yuboray deysiz, hech kim kormayotgan bolsa ham koringizga yosh kelmaydi. Oldimda ikki boğ ot, kuch etmaganidan ich qaltiraydi, chora yoq, sira yoq, butun dunyo chorasiz. Bu dunyo kuzimda alam bolib kokaradi. He, deb sokinib yana ornimdan turaman, choğlanib borib, kichkina gavdamdagi bor kuchni qolim bilan belimga berib, ikki boğ tutash ipga tarmashaman... Quvvat deb atayin chaqirgandek dodlayman. Xudoyim ozimda yoq olgovni qaydandir olib beradi ham shu payti.! Eshak bir gendiraklaydi, lekin joyida turadi, yurib ketmaydi, bola jonimga rahmi keladi...

E-e, bu xotiralarning shirini tagida achchiği yashirin, achchiğidan shirini chiqib kelaveradi. Oldin aytgan bolsam ham, aytgim kelaveradi, shunaqa qiziq gaplar sizda ham bolgan, hu osha, salqinini jazira sorib olgan kallak tut soyasiga boshimizni tiqib, kim qaysi qizni olishiga kelisholmay, jiq-jiq talashgan, tayini ham, oxiri ham yoq valdir-vajir damlarimiz. Menga qara, osha qizga gapirib korganmisan ozi, deb soraydigan odam yoq, cholvor ketga zorğa ilinadi, burunni bilakka artib, yoq narsaga, nimaligini ham bilmay, talpinib yurganlarimiz, hay, mishiqi qurmagurlar! Osha qiz ham hali osma qoyishni bilmaydi, latta jild tutadi, dovot ushlab yurganidan qoli kom-kok, yozgichni tishlash odati bor, shundan tili ham kok. Bilgan savoliga ozi ham chozilib baland kotaradi kokargan qolini.

Odam shunaqa unib boy etsa kerak-da. Qolini baland kotarib. Men javob beraman, deb.

Endi bularning hammasi kokrakda, tovushi ichida qoshiq bolib qolgan. Qishloğimizning kokliklari ichra komilib, beun girya qilib otirgan ham osha ozim, giryamning rangi ham kok.

Olis ortga qarayman: malla sochim oftobda unniqib, qizg'ish tus olgan; Bulungurning zilol chashmalar bilan paxta oqovasi aralash b'z suvi, Qipchoqariqning botanasida chomilib, jazillama bilq-bilq tuproqqa komilib yotavergandan, bet shoralab, suyaklar kuyka teri tortilgan tarasha, maktabimiz chorboqidan o'g'irlagan achchiq olmadan tish qamashib, mujmayib yurganlarim... O'zimiznikida shovuldek solib, yer bilan bitta o'g'rib yotganini ko'z oldinga keltirsam, o'g'zim suv ochib ketadi, eshak olmani deb Nosir muallimdan kaltak emasak, ochdan olarmidik? Vafoqul ikkovimiz tepada, shoxda, Nosir muallim pastda, pusib kelib olgan, q'oli orqasida, niyati betida, sado bermay olayib turadi, tushirib olgandan keyin chap q'oli bilan quloqni burab, o'ng q'olining ortancha barmoqining bukigi bilan boshga tukillatib urganda bola odamning tishigacha qoqilib ketadi. Rahmi yo'q, mehirsiz, odam emas, zo'r dars beradi lekin deb, tirishib oqir edik – q'olidan qorqardik.

Saidvali hadisini olgan, Nosir muallim hali urmasidan, ko'zining paxtasini chiqarishi bilan partaning tagiga kirib ketadi, chiq-e bu yoqqa, deb yaxshi gapirib tortsa ham, tiralib, chiqmay g'ujanak bolib olib biqillayveradi, qo'ng'iroq chalinganda kallasini chiqarib bizga bir irshayadi-da, eshagining oldiga haydaydi. Nosir muallimning, aytdim-ku, q'oli, Saidvalining joni qattiq edi. Ha-ya, darvoqe, Saidvalining xati nihoyati chiroyli edi-ey; o'zi chapaqay, bizga kelganda ham peshanasini tirishtirib, o'g'zini ochib harf urishtirib oqiy olmasa ham yozganini tomoshaga qo'yguli edi. Bunaqa chip-chiroyli husnixat unga chikora, tushunmaydi odam.

U bizga beshinchi sinfdan qo'shilgan, G'affor, Begimqul, Sul-ton bilan Navroztepadagi boshlang'ich maktabdan birga kelgan, tort chaqirimdan qatnaydilar, ular piyoda, Saidvali eshakda. U paytlari velosiped juda kam bolada, bori ham minib kelsa, darsda otirgan payti G'aziraning bolalari urib ketishi bor. Ertalab qiziqi yo'q, chunki kattalariga himoyalani-b kelishadi, lekin qaytishlarida bizga kun tuqadi, kattalarining darsi kechroq tugaydi, o-o, topir-topir kesakparron! - bularini qaqshatamiz, lekin bular ham kop otmay uyushib oladi – Saidvalining eshagi atrofiga – G'affor Saidvaliga mingashgan, Begimqul bilan Sul-ton eshakni panalagan, hali urmasimizdan tortovlashib chinqirib, hay-haylashib bizning uy oldidan suron solib suradilar, kesak otishga yurak betlamay qoladi. Sinfdan urishmaymiz-u, lekin darsdan keyin ko'chada g'animmiz, qiziq, bola ekanmiz-da, bolalikning kesaklari ham yumshoq bolganmi, bunaqa otishmalarda onalarimiz, hay yash-shamagur, ko'zini chiqarib qoyasan, boshing yoriladi, deb javrashlariga qaramay, birortamizga zarar etmagan, ammo-lekin tosh otmasdik, faqat kesak, bolacha dushmanligimiz ichida g'irromlik yo'q edi.

O'zi shu, tuproqning ichida pishib, kesagiga toqishib o'sganmiz. G'aziramiz ona ariq Bulungurni baqirlab shimib, ko'kka burkanib olgan bol'sa-da, suvsiz qoq yerda tirishib-tirmashib o'sib chiqayotgan qayragochga oxshataman bolaligimizni. Bol'masa, norasta boyimiz bilan kolxozning katta klubining, yonidagi imoratlarini ham qo'shib, g'ishtini quyib qoyamizmi! Nima ham jonimiz bor edi! Qarang-ey, har kuni ming, ming ikki yuz-uch yuzgacha g'isht tashlaymiz. Haligi, esingizdami,

on tortu yigirma sakkiz, torttalik qolip, shuni qoringa tirab, oyoq qalt-qalt chalkashib, yukning zalvoridan tovon yerga gursillab urilib, zir chopishimiz! Otam yarim kechalari: “San bola ochingdan olyapsanmi, a? Yana kel-chi, urib oyoqingni sindiraman!”, deb oldilariga solib ketadilar, kechasilik salqinda, oy yoruğida ish yaxshi ketishini tushunmaydilar-da, lekin qatordan qolar ekanmanmi, sahar qoronğisida shamğalat urib, yarim yolgacha uyqum ochilmay, loy chiqargani yuguraman. Avval xandakni ikki ağdarib pishitaman, keyin tepaga qulochlab otaman, todalangan uyumni suvlab, ketmonning orqasi bilan silliqalayman, - oltob yaltillaydi loyning ustida, - soğin tushdan keyingisiga yer ağdarib. suvga bosdirib qoyaman. Orada bir nafas rostlab, choylanib olaman-da, shu bilan ke-etdi! Kaftingizning qirrasini bilan loy kesib, hovuchlab qolipga urasiz, hmlab kotarasiz, borib tap ağdarasiz, qaytasiz, tağin qumlaysiz, qol pichoq bolib loyni tilimlayveradi, loy kamayay demaydi, qolip qoringa tiralgan, yalang tovon tosh qotgan, chop-chop qatnovning adoği yoq; chanqov tinkani quritgan, barimizda bittadan tunuka choydush, jomragidan qult-qult tortamiz, ichganimiz osha zahoti tirqirab chiqadi, oldinda kōkrak, orqada kurakning ortasidan milt-milt yumalaydi, oqib chotimizga kiradi; peshanaboğni siqqanda yerga shirillab tushadi. Sahar chiqargan loyni tushgacha, tushda chiqarganni qora shomgacha quyib qoyish kerak. Otirib tikilsangiz, ish sira tugamaydigan kōrinadi. Qipchoqariqning pastida qator-qator loyxandak, belidan yuqori yalangoch, qora-qura Vafuqul, Abduhamid, Karim, Berdiboy, Nusrat... Oq-sariqlarimiz ham kōmirxonada tuğilgandek tusi ozgarib ketgan... Hozir hammasi bormikan deb oylayman, uyga kelgan sinfdoshlarim mendan qari kōrinadi, boshqalari ham boboy bolib qolgandir toza.

Hammasi kecha otgandek. Ōzimizga kattalik qiladigan ketmon, har ağdarganda bir tirsak chuqurlaydigan handak, oxiri loy chiqarishga boy etmay qoladi, yangisini ochamiz. Boshaganini Qipchoqariqning botanasiga tōldiramiz, pishinib olishga bōlaveradi. Kim kōp quyariga ōzishma, bir kunligini qatorma-qator juftlab sanaymiz; Karimniki bir marta bir ming olti yuzu saksonta chiqqan, etolmaganlarning alamini kōrsangiz! Ōziga qarab, shu quydimi-ey, deb ishonmaydi odam. Abduhamid hamsoyam, mendan yoshga kichik, boyi hali osmayapti, har kuni kelib, oksinib otiradi, yiglamsirab iljayadi, tirsagini bukib: “Bu yil kuchim kōpayadi. Mana shu, yoningdan loyxona qilib, ikki mingtalik joy tekislayman. Qara qōlinga, turtib chiqqanini, kuchim qotyapti!”, deb chiranadi, bir yaxshilik kōrsatib, qatorimizda yurish uchun: “Shiyponning oldidan qovun olib kelaymi?” deb xushomad qiladi. Lekin qovun ōğirlashning hadisini olgan: egat ichidan bitta yo ikkita qovunni izma-iz sekin dumalatib kelaveradi, qoli orqasida, pastga egilmaydi, qaragan odam uni gōzaning ichida erinib oynab yuribdi deydi. Tanlashni juda bilardi, yo bōlmasa, shundan shungacha dumalab kelgan qovun ichi ezilib pishardi, ishqilib, suvsirab turgan loykashlar, sapchasini ham eb tōymas edik.

Kolxoz, hamiyatini qarang, uch-tort kunda bir qum olib kelishga mashina ham beradi, kechasi, ammo-lekin yayraymiz. Kun boyi oltobda kuyib, tosh qotgan badanlarimizni Qorasuv silaydi, siypaydi, yumshatadi; oy kecha, oydin kecha, gira-

shira tol ko'lkasidan pari qizlar poylab, bizni tanlayotgandek sirli hayajonda, shivirlashib, shapir-shupur chomilamiz.

Kattalar qora suv bu, sizot, ichmanglar, chomilmanglar – xomlatadi, deb mudom tayinlaydi, lekin qayoqda!

Uning qumlari toza, suvi kozyoshdek tiniq, tagidagi mayda shağaliyu oqimga boshini tutgan toshbosh chavoqchalarigacha korinib turadi. Kokragi kom-kok chipor qushcha chiy-chiy qilib suvga kalla tashlaydi-da, tumshuğida baliqchani biltanglatib chiqadi.

Saratonda Bulunğur loylanadi, Qorasuvning tiniğini deb qoq tushda uch-tort chaqirimga issiqda pishib boramiz. Iyaklar tikillab, ko'kariblar ketguncha chomilamiz, ertalabda egan burda nonimiz sirilib, ichimiz shilinib tushadi, qaytishimiz Ğarovtepada sut ponkiti bor, unda birinza degan narsa qilinadi, bilmaymiz, qayoqqa jonatiladi, shahardagi orislar esami, bizdagi dokonga chiqmaydi, kattalar shuncha qurut turib shuni eysanlarmi, ichlaringni shorlatib yuboradi, deb ijirğanadi, biz esa eshikka tiqilishib, boyinni chozib kutamiz, oqligi bilinmay ketgan kamzul kiygan armanimi, eronimi amaki, biroz mustar qilgach, katta pichoqda kirsovundek bolaklab, qolimizga bitta-bitta tutqazadi. Ana, bu shor baloni qoringa urib olib, keyin kela-kelguncha uchragan oqariqmi, suv qoyilgan egatgami kokrakni berib, toğri ogiz bosamiz. Dorilangan paxtaning ichidan chiqsa ham, etti yumalaganmi – halol, keyin, maykani ogzimizga tutib, sizdirib ichamiz, tutilgan joyiga loy otiradi. Eh-he, ichimizga nimalar otib ketganini hosilotlar bilmasa, bizga nima, chanqaganda paxtaning dorisi ham bir nordon tam qoshadi, lekin toxtab-toxtab, nafas rostlab simiramiz, toyib ichishga nimadir qoymaydi. Er ham u paytlari tozaroq edimi, balxi tutlarning tokilganini tuproğini puflab eyaverardik, qoshilib chumchuqning tezagi otib ketsa, ichoğriqqa davo; oyoqni shisha kessa, arava izi iylagan toza tuproq bosamiz, bir pasda tuzalib ketadi. Qolimizning qotib olgan qadoğini ham tirnoqlab kochirib, orniga tuproq qoyamiz, achigani qoladi.

Qaytishda yana terlab pishamiz, shuncha yo'lga borib chomilganimiz bir pul, endi Bulunğurga kalla tashlamay uyga bormaymiz. Yozimiz ish, ishdan qochib, tuproqqa botishu suvga shongish bilan otadi.

Aytgancha, kolxoz ğishtning mingiga sakkiz somdan pul va'da qilib, quyganimizdan keyin esa bo-σ deb, biz bolalarga hech zarili yoq buğdoyiga chaqqan, eshakda torvalab tashiganmiz; qolimiz pul korsa, velosiped olamiz, ko'chadan qizlarni havaslantirib uchirib otamiz degan orzular osha qazganimiz loyhandaqlarda uyalaganicha qolgan. Hozir oglimni ozimning ornimga qoyib korsam, im-m deb tishimni tishimga bosaman, uning qilmagan, endi sira qilmaydigan mehnatidan ezilaman. Yoq, bolalarim, nevaralarim uchun ham botanalarni ozim ichdim, hayotining imoratiga qancha ğisht lozim bo'lsa, oldindan ozim quyib qoydim. Qilgan mehnatlarim etti avlodimga etguli. Shunaqa gaplar bilan ham ozimga taskin beraman-da.

Ey-y, kun tagida kun kormagan bolalig-ey!

Ha-ya, bitirganimizda maktab ham shunday qo'yib yubormagan, qizlarga nima yuklagani esda yo'q, balki devor oqlatgan, pol yuvdirgandir, balki g'oz chopiq, ishqilib, hafta-on kun ishlatgan, aniq aytolmayman, lekin o'gil bolalardan on mingtadan g'ishtni sanab olib, attestatini keyin bergan. Biz ham bu paytga kelib pircha bo'lib qolganmiz, imtihonlardan qutulgan, baholar olingan, qurigan g'ishtni uchtadan sakkiz qavat, ustiga bitta qo'yib yigirma beshtadan yondama qilib terishda ichini bosh qoldirib, sanoqda aldaganmiz. Muallimlarimiz buni bilmagan yo, ko'rinib turganini ham ishlatadigan joyning o'zi yo'qligi uchunmi, bilmaganlikka olgan.

Shu tinmaslik shashti bilan universitetga ham kirib ketdim: mol haydash, ot o'rish, paxta chopiq, yer ag'darish, somon tashish, ariq tozalash, g'isht quyishlar endi yo'q, terimdan bu yoqda ham qutulib ketmadig-u, lekin yotib oqisang, o'qiganlaringni uqsang bo'ldi ekan – shahar seniki. Bulun'urning tubidan sakrab boshimni chiqargandek bo'ldim, misoli, havo etmay bo'g'ilib yotganda tuyqusdan hi-i deb yutoqib nafas oldim, ko'kraginga erkinlik keldi. Bu yerda uylar qalashib yotsa ham bir kenglik, darslardan bolak paytlari o'zingga o'zing xon, o'zing bek, kinoteatrlar yarim oqshomgacha ochiq, ertalab yumshoq bo'lganonga qalin sutshinni suramiz - nonushta, tushlikda yigirma ikki tiyinga yarim kosa la'g'mon degan narsa, yigirma tort tiyinga kartoshka qaylali kotlet, kechqurunga yana bo'lganon bilan kilka-konserva tayyor. Shu kilka ham qancha talabani joniga ora kirgan! Yashash zax ijaryu chontak mudom kasalligi qishloq bolasiga chot emas, madrasa tupro'gini yalash - ko'rmagan martabamiz. Lekin bu tarixlarga hali ancha bor. Ulargacha kechgan bolalik xotiram arqoqlarida chuvalashib yotibdi...

Kichik gunohidan bir uyalgan odam keyin katta gunohlardan tiyilib qolar ekan. Shu desangiz, bir kuni bodring o'g'irlovdim. Ha, o'g'irlikka kirganman. Bodring ayni etilgan payt, gurkin palagining hidi dimoqqa gupillab uriladi, juda chanqagan edim, Bulun'ur yoqadagi chashma bir chaqirim, borishga sabrim yo'q, oftob tikkada, chidamadim, kirib oldim. O'ralmagan, hatto uvati ham yo'q tomorqa, bodringlari bilakdek, ko'klari palak tagida suv olib yotibdi, sen je-men je, pishganlari oftobda sar'gayib tovlanadi. Biz tomonlarda tomorqa deb faqat hovlidagi ekin-tikinni emas, odamlarning dalada paxtadan ortgan boltak-soltaklarni yer qilib olgani ham aytiladi, bu tirikchiligini hech kim ihotalamaydi, agar ham hu haligi Valentin Tyupkoning chigitni kvadrat uyalab ekishidan qolgan dona-dona dumaloqli simi bilan atroflab qoymasa; hujjat-pujjat kerak emas, yillar badalida, paxtaning qartalari qayta tuzilib, bu yer ham kirib ketmasa, bir kishiga umrlik tegish, meros bolib oilasiga otaveradi ham. Narzulla bobonikining ham chayla oti bor-u, yom'g'ir yuvgan, tomi yo'q tort katak - odam belicha paxsadan boshqa vaqosi yo'q, Qipchoqariq uvati bilan ortada shapaloq yer, mol ham bemalol bosib ketaveradi...

Xullasi shuki, burganning panasida korinmayapman deb omarganimni eb otirsam, uch-tort kunda bir ham ko'rinish bermaydigan Narzulla bobo ustimga kelib qolsa! O'tirgan joyimda taxta qotdim. Narzulla bobo bermagan salomimga: "Va-alaykum! Bay-bay, yonishini! Eshonbovo, Qipchoqariqdan ichib qoymang ta'gin, paxtadan

hamma zahar shunga tushadi, - deb yaktagidan bir etak bodring tokdi oldimga, - Mang, kokrakning kuyganini juda oladi-da”. Tishlaganim qolimga, oʻzimdagim tomoʻgimdan otmaydi, qoʻlga bunday laqqa tushganimga angrayib, betilu bezabon otiraverdim. Bobo yana meni otamning hurmatiga sizlaydi deng! Shuncha bodringni atay berdimi yo bilmaymi, lekin yomon uyaltirdi. Shu-shu, yuzim shuvit, qovunlari palagida torlab, tarvuzlari tirsillab yotadi, yonidagi yoʻldan otib men qaramayman! “Hoʻ, eshonbobo, xoʻjabilmas shirasiga chidamay yorilib ketibdi-da, keling, uvol boʻlmasin, bitta kosa qilib beray”, deb oʻzi chaqirib tursa ham u-bu deb gʻuldirab qochaman.

Buni nimaga aytyapman, shundan ikkimi-uchmi kun keyin, Qipchoqariq uvatiga mollarimni arqonlab, oʻt orib yurganimda zarurat qistab qolib, choʻnqayib otirgan joyimda butimning tagidan qora ilon otib qolsa! Ey-voy, dahshat! Korganda yuragim yorilmas, lekin seskanishim bor edi, lekin bu, - sekin gapirasizmi, palakat! – naq ketimning tagidan, boshini sal kotarsa tegadi, koʻzi shunaqa sovuq, taʻgin toʻoʻgʻri, odamning ichigacha muzlatib tikiladi! Esim chiqib ketdi, oʻtim yorildi, kapalagim anaqa boʻldi deganlari hech gap emas!

Bilmadim, xudoning bu bola ham yashasin deb rahmi keldimi, tosh qotib toʻgʻri qilibman, padarla'nati, xas-xashakni bir maromda shiʻgillatib, tikilgan koʻzini uzmay, simob oqib otaverdi-otaverdi! Yomon uzun tuyuldi lekin! Orqa joyim tosh osilib koʻringandir, oʻgil bolaning uyati yoʻq yerimni raqib bilmagandir, har qalay, teginmadi, lekin otib, burgan ichida koʻrinmay ketgandan keyin ham nafasim chiqmay, allazamon bejon qotib qoldim. Chaqqanda oldirma ham, qoʻrqqanimdan oʻzim naqd oʻlib berardim lekin. Shu qotib otirishimda oʻlganim shudir, deb ham oyladim bir, ey, nihoyatda xunuk sovuq, tirik jonivor ham shunaqa zimiston boʻladimi! Tilini chiqargani musulmon deyishadi, oʻsha vaqti tiliga qarabmanmi, imonini xudo kotarsin, shu bilan kop yillar, hatto qishlarda ham tushlarimga makon qurib oldi. Tushga kirgani boylik emish, lekin turqi oʻchsin, u yoʻgingiz ham, bu yoʻgingiz ham uzun-uzun chirmashib chalkashgan ilon, shunaqa koʻrardim-da tushimda, bir qoʻrqib uyʻgoning, boylik kerakmi, joningizmi, oʻshanda bilasiz. Ha-a, uyqu buzilib, ertalabgacha xavotirda chiqing, keyin birovga oson tutasiz!

Dala-dasht mayli, lekin bu gazanda qishloqning ichida ham serob, daraxtlarning ustida chumchuqlarni qiy-chuv toʻzitib, odamning yuragiga gʻulgula soladi, uylarning shiftida yuradi, egasiga tegmaydi, un sepsa yoʻqoladi, lekin xayoldan ketmaydi, oʻzini ustingizga tashlab yuborayotgandek boʻlaveradi. Haligi, yalangoch butimning shundoq tagidan otgungacha paytlari korsam, yuragim ozgina shuvillab qoʻyardi, xolos, endi esa yalang katta kochada ham alanglab yuraman, tuproqqa tushgan izi tirikdek ilang-bilang yiltillab, oyoqdan uzib oladigandek boʻlaveradi. Kechalari sim-siyohda unsiz shuvillab daf qilayotgandek, uxlasam sekin koʻrpaning tagidan kirib kelayotgandek; ayniqsa gungurt badrafda koʻrinmay qoʻrqitadi. Bir kuni Qipchoqariqning pastida ham oldimdan chiqib qolib, otakamni yordi. Oʻqilon edi. Odamga otilsa, kokragini teshib otib ketadi degan mahovapti bor. Oʻzi-ku ipdek bir narsa, bezarar, chaqsa ham kerag-u, lekin odamdan qochadi, uchrasa, koʻzingizga bir narsa lip ilingandek tuyuladi, ichingizda bir xavfsirash

turadi, uch odimcha narida ot qimirlab qoladi, vassalom, tizimcha oʻzini osha yoqqa otgan boʻladi. Bu ancha kattasi, ya'ni uzuni ekan, ustiga kelib qolganimga shoshdimi, qorqqanidanmi, ishqilib, beligacha baland kotarilib, toʻgʻri tikilganicha qotgan. Koʻzim tushgani hamono holati jon irgʻib yuborganimni bilmayman, shunaqa paytlari vahima ham kuch berar ekanmi, fizkul turadan “uch” oladigan holimda, shu otilishda yoʻlni uch-tort quloch enlagan koʻlmakning u yoʻgiga tushibman, keyin shunchaga sakraganimni koʻrib, koʻzimga ishonmadim. Qipchoqariq shu yerda ikki odam boʻyi tikdan otadi, pasti olmachorboʻgʻ, ortada tuproq yoʻl, chorboʻgdan suv toshib, yoʻlni bosibdi, uvat tagida xolos bir odam otarli quruq er, qachondir korgan kinomning qoshiʻgini e-e, nay-nay-nay, nanay-nay-nay, deb aytib, dingillab kelayotgan edim, sakrab koʻlmakning bu yoʻgiga tushib ham nay-nayim toxtamabdi, xuddi kaltak eb angillayotgan kuchukdek, ancha vaqtgacha nay-nay-y, deb qoyaman deng.

Ha, aytmoqchi edimki, haligi qora ilon Narzulla boboning chaylasiniki boʻlgan, Qipchoqariqqa suvlagani tushayotib, orqamdan kelib, bu bola endi boshqa gunoh qilmasin degan nimadir hikmatini bildirishga ataylab butimning tagidan yoʻl solgan, boʻlmasa, yer keng, otishiga joy bemalol edi.

Yana... bolaligimda bu juda kop edi, ongimda ham, tushimda ham, lekin birontasi tegmagan, tushlarimda qorqitgani bilan ham chaqmagan – bu ham bir narsani bildirar, axir. Buni ham donishmand deyishadi shekilli. Lekin bizda emas, oʻqiganman.

Oʻzi kichkinaligimdan oʻqishga ruju qoʻyib, hamma narsaning tagidan bir aql chiqarib olish koʻyiga tushgan edim. Kitob qishloʻgim tepasidagi bir tuynuk, shu tuynukdan tashqariga oʻrmalab chiqib, bolakcha dunyolarga ketib qolar, osha yoqlarda qidirib, gazanda vahmiyu kongilga yuk boʻladigan boshqa gaplarni tamom unutar edim. Odam boʻlishga anglab-anglamay yoʻl izlabmi, shu mehnatlar ichida maktabni, xususan uning kutubxonasini boshni sajdaga toʻgʻrilaydigan mehrobga aylantirib olgan edim. U paytlari, albatta, Allohni oylasak ham uzoqdan, kongil musulmonligi - oʻqish, kitobga ruju, ehtimolki kutubxonamizdan tarqalgan, hammaga chapa-rasta yuqmagan boʻlsa-da, menga oʻxshaganlarni oʻgʻritgan bir yut kabi edi. “Besh”ga oʻqish ham katta bir martaba, odamlilik kelajagimiz naq sinfxonamiz derazalaridan moralab imlab turardi. E, bu qizlarni gapirmang, uyida qiladigan ishi yoqmi, kitobga yopishgan! Shular topib, oʻqiganini bir-biriga chuʻgurlab, miyani qoqib qoʻlga berganidan, osha yaxshi kitoblarni qoʻlga olishga orlanar edi odam. Lekin qizlar koʻkragiga bosib yurmagan ham bisyor, kutubxonada ular kirmagan boshqa kop dunyolarni kezishim mumkin edi. Kutubxonachimiz senga kattalik qiladi demaydi, taxta javondan qoʻlim bilan koʻrsatganimni beradi. Muqovasi qalin, semizlarini tanlayman. Nimalarni oʻqimaganman! Qanaqadir Vasyok Trubachev, Ashot, ularning doʻstlariga qoʻshilib yurib tong ottirar edim. Kimdir, toqqa qochgan Alitet, nimaga qochgan - esimda yoq, lekin katta, qalin kitobni namoyishga kotarib, osha kop oʻqiydigan qizlarni ham hayiqtirib yurganim haligacha esimda. Baliq, tyulen ovlab kun koʻradigan qanaqadir bir shimol xalqimi, ovchi qabilasimi, shularda otasi qarib, ishga yaramay

qolsa, uni o'z o'g'li elkasiga mindirib, qor bosgan to'gdagi bir ovloqqa eltib tashlar, boboy bechora o'sha muzloqda yol'giz qolib, ta'gin o'g'lini shu qilgani uchun alqab, qismatiga rozi, o'lib ketaverar ekan! Endi bu quruq nonxor, yashab nima qiladi deb tashlab kelgan-da o'gil basamon!

Ana! Oqshom yarimda tepamga kelib: "Boldi qil-e, valad... Kor bo'lguncha oqiysanmi!" deb mehr aralash so'kib, kerosinchiroqni puflab ochirib ketadigan otam, mening qorong'ida qor bosgan tundra ormonidan beshafqat to'qqa qarab yo'l bosib, otam qarisa hech qachon unaqa ovloqqa, hatto yaqinimizdagi Gubdinga ham tashlab kelmaslikka ont ichib, ichgan ontimdan o'zimning ko'zim yoshlanib borayotganimni bilmaydilar-da!

Shunday lekin: qolimdagi kitobning ichidan, o'shanaqasi shaharmi, toqaymi, biyobongami, korpachaga ba'grimni berganim koyi otib ketgan bo'lar edim.

E-e, aytmabman-a, endi keldi esimga: g'isht qo'yganda boshagan xandaqlarni suvga to'ldirib qoyib, har kuni pishinavergandan, qizib ketganda tashlab olaverar edik; loy quyqasi teriga otirib, singib, kaltakesakning postidek qurishtiradi, keyin shu joylar tirs-tirs yoriladi, tovon ham bo'laklanib, tagidan qizil g'oshti chiqib qoladi, yoriqlarga qora saqich chaynab yopishtiramiz, son nozik, butning pastidan tizzagacha achib turaveradi, uning taramlari davosiga vazelin, bo'lmasa yana shu aravayolning tupro'gi. Sahar turganda uyquda bitgan tirishlar azot odimlagani qo'ymaydi, ko'zga yosh kelib, esnab-esnab kerishib, zo'r bilan butni kerib yuramiz, bilamiz, tirishlar yirtilib qonaydi, achishadi, lekin yoziladi, bu yo'g'iga chidaymiz. Faqat shabada salqini tirishlardan kirib badanni dildiratadi, hu borib, yalan'gochlanib, qo'lda ketmon bilan handaqqqa tushgandan keyin, qon yurishib, loyning sovu'gi yo'l boyi achishib o'grigan oyoqqa malham bo'lib yopishadi, xayolda faqat chiqarib otayotgan loyim qancha g'ishtga etsa degan oy-u, ichingizda toshayotgan bir g'ayrat qoladi, xolos.

Qizi'g'-ey, e-e, shuni ham oylab otiramizmi, bolalarni solamiz, quyib tashlaydi, shataloq otib yuribdi-ku bari, degan-da bir aqlli mard kalon; kattalarning tushinishi shu. Shataloq otamiz! Otam ham kechalari so'kib, oldilariga solib kelsalar ham yo'lga, bari bir, shuncha bola nima bo'lsa, bu ham shu-da deb qaraganlar.

Mayli, sardaftarning bu yo'g'ini kavlayvermay, o'lmagan qul koravergan ekan-da-ey. U paytlari qullikni qaydan bilamiz, qullik, shunchaki, uning ham bir zavqlari bo'lgan.

G'isht quygan paytimda o'qishga iloj yo'q edi, charchayman, uxlab ham olish kerak, jazirama kunlari ham kallaga kitob kirmaydi, Bulun'gur bilan Qorasuv o'ziga tortaveradi. Lekin boshqa paytlari, ayniqsa qorong'i qishlarda kitobga muk tushaman. Dalaga mol haydashda qulayini qilib, eshakning ustida ham o'qib ketaveraman. Albatta, bunda ko'zi tushgan kattalarning: "E, bu bolaning kitobga yopishganini!" deb qo'yishlaridan shishmalanish ham bor-u, lekin mullaligim, haqqast rost, Saidvalining noskashligidan otib tushar edi. Mol temir qoziqni jingirlatib ipini o'zi sudraydi, eshak ularga ergashma, eshakning yurishiga mos

chayqalib-chayqalib, kitobdan k z uzmay ketaverasiz – kochma egar qiroatxona. Hu dalaga etgandan keyin mollarni arqonlab bir soyani olsangiz, sizdan bemalol odam yoq.

Bir kuni tut tagida ustimdan soya ketib, oftob boshimga tikkadan urib kuydirib yuborguncha  qib yotaveribman, sakrab tursam, mollar yoq! Temir qoziğini, tesha olib yuraman, qattiq yerga qoqqan edim, molning ozi tortganga suęurilmaydi. Qanday ketadi! Oęri kunduzi dorimaydi, uning ishi kechasilik, shunda ham onda-sonda bittalab oladi. Besh mol aqllashib gapni bir joyga qoyib yoqolgani aqlimga sięmaydi.

Esim chiqib, izlashga tushdim. Bulunęur boylaridagi yovvoyi jiydalarning orasidan, paxtapoya, sholipoyalardan axtardim, olmachorboqqa kirdim, Valibobogacha qarab keldim, - yoq, yerga kirganmi, osmonga chiqqanmi - yoq-da. Maza qochdi, sarosimada, bu ham yoqolib qolmasin deb, eshakni minib, uyga chopdim, oyimga indamay, bir omonat ilinjda oęilxona-ayvonlarni, uying orqasidagi yertokni qaradim, xuddi shularning orasida bemalol kavsh qaytarib yotadigandek, yoq! Ana shu vaqti otam kelib qoldilar! Har juma Samarqandga namozga boradilar. Endi nima deyman deb, damim ichimga tushib ketdi. Menga sovęa – qizil loklangan boshmoq olib kelibdilar, hali qolimga kelmasidan bildim - qizlarniki, yana oyoęimga katta; yarqillagan ekan-da, charmi pishiq emish-ey, - bir alam qildi, bir alam! – mana bolmasam deb mollarni yoqotganimni aytib yubordim. “Oqshomi bilan  qib chiqib, keyin dalada uyquni urasan.  zing yoqolib qolmabsan ham yaxshi”, dedilar otam uncha urishmay. “Yoq, qarab  tirgan edim soyada, birdan yoqolib qopti”, dedim. Otam toęiyotganimni bilib  siq qoshlari tagidan bir qarab qoydilar, men boshmoqni yana artib silagan bolib: “Juda zor ekan-u, shu sal kattaligi...”, deb nigohlarini yumshatdim. “Hay, Eshim kasofat oralagandir-da, qayoqqa ham ketadi”, dedilar. Boshmoqni maqtaganimga soqollarini tutamlab: “Hm, koni toza, shunday yarashięli narsa bekorga turmagan-ov, dedi-im, zaifona ekan-da”, deb xijolat bolgan boldilar.

Boshmoqni xushomadga yana bir kiyib korsatdim. Qurib ketkur, qizlarniki bolmasa ham mayli edi. Menga toęri kelmasa, opamlar paxtaga sudrab yurar emish, a,  zim-chi? Saharlab dalaga chopsam, mollarini boqsam,  tlarini  rsam, pichanlarini qilsam, somongacha tashisam. taęin menga kelgan toęplini opamlar paxtaga sudrarmish. Men-chi, halokuning itimanmi! Eshakning mehnati halolu... Xay, oborib, kuydirib korib olsalar, nima qilardi! Bahonada Samarqandni korib kelardim. Shu-u, boboylar bitta ishga yana bittasini qoshib bitirishni bilmaydi, ammo-lekin, kattalarning gapini bolma, yuvilmagan qoshiqday suqilma oraga, biladigan bolib qoldingmi, dim  tir, peshanangni tirishtirma, - doim jerkish,  zlarining bilganlari esa bu, jahling chiqmaydimi! Indamay  tirsang – anqayma, gapirsang – tilingni tiy. Uyquni urgansan emish!

Kuyasan-da! Senga deb kelgan narsa kozingni oynatib shunday qolingda tursa-da, senga toęri kelmasa, axir, bunga chidab boladimi! Ey, oyoęimda uchining yirtięidan boshmaldoęim chiqib turadigan eski keda, qoqilganda qonayverib,

boshmaldoq ham shum-zada boʻlib olgan, kiyib, hali yurmasimdan bezillashga boshlaydi .

Hay, mayli, endi ming kuy, befoyda, shundan shunga oborib qaytarib bermaydilar-ku, bari bir. Oyim boshmoqni uchiga paxta tikib kiydirib, bir yurib kor qani, deganlariga yurib ham kordim, odamning beli mayishib, quymichi oynab ketar ekan. Poshnaning yarmidan arralab tashlasa... e-e, boʻlmaydi, buziladi, keyin, bari bir, qip-qizil-da, kulgiga qolaman.

Boshmoqni qolimga olaman, qoyaman, aylantirib koraman, battar xunobim oshadi. Otam esa shuncha diqqatligimga beparvo, yonboshlab, choylarini bemalol ichdilar-u, ozim boray-chi, deb eshakni minib dalaga ketdilar. Shuni ham oʻglimga deb oldilarmi-ya, deb bor zaharchamni oyimga sochib, orqalaridan ozim ham jonadim. Borsam, otam olmaning tagida chozilgan, tomorqamizga suv ochilgan, mollarning beshovi ham Qipchoqariqning ustida, dumini elpib otlayapti, ipi Eshim kaldan omon ekan.

Bizda oqaloq, bir joylarda sona, boka deyishadi, ana shu kasofat kelib qolsa, ozini kor-maysiz, eshit-maysiz ham, tinchgina otlab turgan mol bechora birdan shaytonlaydi, shunday shaytonlab ketadiki! Kozlari olayib, bokirib yuboradi, sakrab ozini toʻgri kelgan tomonga otadi, kor-gan odamni ham nogahon vahm bosadi. Meniki shu oqaloqdan qochib, ipi pishiq jun, uzilmagan, qoziq-pozigi bilan Qipchoqariqning ichiga, qamishning boʻligiga urib ketib, soya-salqinda, boynigacha suv, ariq labidagi otga chozilib, huzurini topib turgan ekan. Bu yoqda esa yuragim yorilgan, shuncha molni yoqotdim, qanday kunga qoldim endi, deb.

Lekin mollarning shuncha vaqt beega qolganini Eshim kal qanday bilmay, ipini qanday olmagan, bu ham jumboq, undan sirli bir xatar keladi odamning kongliga; kalga insof tekkanidan ham xavotir turadi.

Ey-y, buning uchun uning ta'rifini keltirish kerak, aytmasa xotira ham kemtik boʻlib qoladi. Gap shundaki – Eshim kal shunchaki, soddasi koʻprik tagida turib eshak hurkitadigan jon bir kallardan emas, alohida, devi bormi, jinimi, ishqilib, bolakcha bir kal. Alohidaligi – qoʻli egriligi, kulishni ham, achinishni ham bilmaysiz – ip oʻgʻirlaydi, boshqa narsa bilan ishi yoq, aynan arqonlab qoyilgan molning ipini qoymaydi; devi yo jini borligi – molingizga qarab otirganingizda angda qoldiradi, olganini kor-maysiz. Gapiray desangiz, qolidan ushlab olmagan-siz. Shunga duo ketgan deyman, boʻlmasa qarab turib bilmaysizmi. Oʻgʻriligi hammaga ma'lum, hamma bilishini ozi ham biladi, lekin kasmini qoymaydi, xuddi hamma bilan bas boylashgandek, Ozida bor-yoʻgi bitta oriq tanacha, u ham podasida, kal vaqti-vaqti bilan podachimiz ham, buncha koʻp ip nima zaril, inson zoti tushunmaydi. Lekin yiğaveradi, yiqqani chirib ketguncha chiqmaydi, agar ipingiz esingizda turgan boʻlsa, yillar otib, kal gʻozapoya tashiyotganda, toʻgʻdek qilib elkalar edi lekin, kalta-kulta ulamalaridan taniysiz-da, qol siltaysiz, ber deb tortib olganingiz bilan endi hech narsaga yaramaydi. Qizigi shundaki, ipni kal olganini aniq bilgan odamar kuyinib ham otirmaydi, xuddi oʻgʻrilik ham oshi halolga ustamadek. Ip mayli-ku-ya, lekin boshqoq yurgan mol bironing tomorqasiga kirib ketadi, qorakorpa eb

damlaydi yo yoqolib qoladi. Keyin Qiron jarchi bozorda chaqiradi: “Hō-ō, eshitmadim demanglar! Hō-ō, ola navvos yoqolgan ekan, hō-ō, shu navvos falonchiniki ekan!... Navvosni topganga shu palonchi suyunchiga on som tikkan ekan. Hō-ō, shuni topgan obkeb bersa, suyunchini olaversin ekan, Hō-ō, ola navvos...”

Shuning davomiga Qiron jarchi: “Hō-ō, ola novvosning ipini ozlaring bilgan Eshim kal olgan ekan”, deb yuborsa-ku, olam guliston. Lekin Qiron jarchi otini tutmaydi, Eshim egriligini qoymaydi. Hamsoya bolsak-da, eshonbobonikini ham oladi-ey, nokas! Ōzim boqib yurib, korolmay qolaman, lekin hamsoyamiz-ku, borib sorayman, siz kormadingizmi deb, toʻgri tarmashishga hayiqaman, bir narsalar deb ʻgudinglaydi, bilganimni bildi deyman, chunki betimga qaramaydi. Oftobda kuyib, qorayib, qollari ishning zoridan akashakdek qiyshayib, kokish tomirlari bortib ketgan, elkasi sal chokik bolsa ham, juda baquvvat shayton, odam bilan urishganini eshitmagan-u, ammo, bari bir, nimasidandir seskanaman. Tinchgina yer suzib yuradi, ming sorang, ipni sen oldingmi deb, oʻzizingiz oʻgrigani qoladi. Oldimi, tamom – unga otgan. Ba'zan ahmoq bolganim otib ketib, otamga aytsam: “Sen yotib kitob oʻqisang, men borib molingning ipidan ushlab turay-da, a? Qaramasang – oladi-da”, deb menga gapiradilar, oʻziga indamaydilar. Ba'zan-ba'zan ipi olingan molni izlash chozilib, nihoyat topilib, kongil joyiga tushgan paytlari: “Xudoy urgan tuyani vaysilqora ne qilsin”, deydi, menga qoyaver degandek.

Endi ʻGaziramizning oʻziga kelsak, orta joyda eskidan bozori bolgani bois butun chor-atrofiga peshgir, qizil kaltak degan zamonlariyoq maktab ochib, ko-ōp oqimishli odamlar etishtirgan, dosentu professorlari Samarqandu Toshkentlarda dars berib, ularga ergashgan maktab bolalari ham oliyga guruh-guruh kirib, talabalari shanba-bozor kunlari avtobuslarni qappaytirib shaharga borib qaytadigan hiyla dami baland qishloq. Eshim kalni gapirish ham sal maydagaplik, chunki u ham shu ʻGaziraning katta bagriga hamma sigib, har kimning oʻz tegishi belgili ekani, ming yoqqa chopmasin, peshanaga yozilganidan ortigini ololmasligiga bir misol, xolos. Begona emas, oʻzimizning sinashta xonazot kalimiz, podani faqat oshi halolga boqadi, ipini olsa ham molning oʻziga teginmaydi. Paxta siyosati qattiq zamonda uning zararidan foydasi koproq, ipini oldirmayman deb koʻz-quloq tursangiz, boshqoq mol paxtaga tushib soʻyilib ketmaydi, egasini javobgarlikka torttirmaydi. Kalning bu tomoni ham bor.

Shu odam tinmaydi, onasi kim bolgan bolsa ham, buni lekin qora mehnatga tuqqan. Qishloqda nima oʻgir ish bolsa, shu balogardon, koklamda ariq qazigan ham, kundakov ham, yozda tomhasharga loy qorgan ham, saratonda paxsachilarga loykash ham shu, toy-ma'arakalarning samovari shu tekin xizmatkorsiz qaynamaydi, ayniqsa erta bahor, yer tekislash payti shudgorning ustidan mola tortiladi-ku, ikki qator temir tirma ulanib traktorga kondalang tirkalgan oʻgir tosinbolor, shuning ustida ham kal, mola onqir-chonqirda oʻynoqlab ketganda tagiga tushib qolgan odam tirik chiqmaydi, unga esa jin ham urmaydi, mola bilan baravar kotarilib tushadi, lekin sirachlab qoyilgandek, qonib otiraveradi. E-e xullas, mehnatning oʻgiri-engili demaydi, inq etmay qilaveradi. Joni qattiq. Chidam,

bardosh degan narsalar tosh-metin kelbatiga qoʻshilib, qotib ketgan. Ha, bir shatrama xotini bor, Bobili, asli oti Asolatmi, Asilami, hammaning esidan chiqib ketgan, shuning baqirishlari bilan ham ishi yoʻq. Bobili yeri koʻkni tuproqqa qorib qarʻganadi, er yer yutkur nonni nimkosaga boʻktirib uraveradi, quloʻgi yoʻq. Ha, til ham yoʻq, yo xotinidan, yo turmushidan noliganini birov eshitmagan.

Bizda oʻzi, toʻgʻri, hasratini yuzaga kamdan-kam odam yuzaga chiqaradi, dardini tokkani kimga ham zaril, barchaniki oʻziga etib ortsa, oʻzganikiga tob-toqat bormi. Ming gapir, koʻrgan kuning onglanmaydi. Bu paxtasida kimning biri ikki boʻlibdi, rais-pais, ferma mudirlarini aytmasa, lekin tumonat shuning ichida, baraka topsa-topmasa, sahardan qaro shomgacha borib kelaveradi; erkagu ayol bari turtingan, barining quloʻgi butun qishloqqa tortanak tortilgan radiotarmoqda, koʻchadagi karnay, uylarning levoriga osilgan qutichalar kim nima ish qilganini shanʻgillab turadi, aytilganni qilmaganlarni raisboboning oʻzi chaparosta soʻkadi, jaddiga pichan yo somondan mahrum qilganini joriyalaydi. Hali daladan ot olmaysan, molingni chiqarmaysan, deb qolmasa! Ana endi joningizni Jabborga bermay koring! Roʻzgora tirgak faqat mol-ku, paxtadan hemiri kelmasin, mayli, ammo molginaning tagidan shamol oʻtib tursin-da, boʻlmasa, bola-chaqani qanday boqib olamiz! Ey, bu dunyosida nimaga yugurib yuribmiz oʻzi!

Lekin shu chop-chopda bolalarning oʻzi esdan chiqib qolgandek. Bizda ham tinim yoʻq, ishga tarmashganmiz, oʻyinni qochib qilamiz. Oʻyinchoq otiga ham yoʻq, topganimiz kultivasiyaning chingalagi, velosiped ʻgildiragining spisa degan narsasi olib tashlangan aylanasi, chop bilan hay suramiz-da. Urush-urush, yashinmachoq, zuv-zuv, kim koʻpga shonʻgish, hammompish - pushka yasab, ortasidagi teshigidan raqib koʻziga tuproq puflab qochirish, chillak, quloqchoʻzma, eshak koʻpkari, qizlar mollarning junidan yulib, koptok yumaloqlab oladi, beshtoshdan tortishadi. Ha, maktabda osilsa ʻgiyqillaydigan turnik ham bor, Vafoqul aylanaman deb, qoq yerga boshi bilan tushib, bir tutam sochidan ayrilgan. Yerda xuddi lankaning postagidek yotgan sochi. Aytmoqchi, lanka ham yaxshi koʻradigan ermagemiz edi, hay, dabba boʻlib qolasan deb koyishsa ham, bu tepkini qoymas edik.

Kattalarning biz bilan ishi: egani noni bormi, ustida butroqmi, e-e, kimning bolasi tokinchilikda oʻsyapti, ikki oyoqda tik yuribdi-ku, olmasa, bir kunini korib ketar, tupirkilosdan xudojonning oʻzi asrasin! Biz ham shu: birov bolasini bolam-botamlaganini kormaganimdan keyin suykalib- suykumlanishni bilmaymiz. Sokish eshitmasak boʻldi-da, lekin bu ham pastu balandiga qarab, baʻzan erkaltish: “Bu onangdi... ning bolasini qara, bir oʻzi qilibdi-ya shuncha ishni!...” Bundan ortiq boʻladimi, taltayasiz-da. Qarang, qilgan mehnatingiz nazarga tushgan. Kim kimni sokkanini qoyavering.

Otamning namozdan keyin atay dokonga kirib, atoqlab menga boshmoq olganlari ham, mayli, keyin oyimdan bildim, narxi tushirilgan mollar dokoni ekan, - koʻp chibjinglayverma, suv tekinga olgan otang, - lekin juda katta eʻtibor edi. Ota – bizlar uchun, eh-he, bir uluʻg zot, xudo xayolning bir chekkasidagi qutluʻg bir, nima desam, jahoniy vahm boʻlsa, ota shunga yaqin buzrukvor siymo. Bolaligimda

otamning yuzlariga tik qaramaganman, tikilib yodda saqlab qololmaganimga hanuz nadomat qilaman. Lekin pinhoniylarimni, ichimda qolib ketadigan isyonlarim bolib turar, u kishi g'ingshishlarimni "E, buning gapini qara", deb otkazib yuborar edilar. Ba'zan otam shuncha farzandlarining ichida mening ham borligimni payqamasalar ham kerak, deb mung'ayib qolardim. Bolmasa, o'g'il bolaga qiz bolanikini, yana oyo'g'iga katta boshmoq ham kotarib keladilarmi? Shunaqa. Gapimni ham chaqaga olmaydilar. Bir qora qochqorim bor edi, qozichoqligidan ozim qaraganman, itimdek orqamdan ergashib yurardi, dodimga quloq solmay, bolak semirmaydi deb, sotib yubordilar-da, uch-tort hafta otib, boshqa qochqor olib berdilar. Bozordayoq, savdolashayotganlarida aytdim, "Ota, shuni olmaylik, shoxlag'ich ekan, odamni mayib qiladi", deb. "Jim-e, mushtday bolaning gap bilishini!", deb urishib berdilar. Oq qochqor xipcha, kallasini baland kotarib turadigan, ozicha kibrli bir olifta, odamni suzish payini ko'zlar edi, men ham qoyga qarab, pishib ketmaganmanmi, kallasini sal qiyshaytirishi bilan yo eshakka minib olaman, yo oraga mol solib chap beraman. Otamga necha marta aytdim, qani eshitsalar! Bir kuni kechqurun men toyga ketib, em berayotsalar, oyimni suzibdi, xayriyat, qo'yxona chetanining bu yo'g'iga yiqilib, yanagi shoxlashidan omon qolibdilar. Shuni otamga aytib, "Molga qarash o'g'ling turib senga qoldimi?", deb bekorga koyish eshitdilar. Keyin qochqorvoy mana bolmasam deb, oppoq soqollari ko'kraklariga tushganiga hurmat ko'rsatmay, ozlariga kalla qoyibdi. Bir suzib, tislaniy yana xezlanib kelayotganda boshiga bir musht tushirgan ekanlar, va-alab yonboshga qulabdi. Otam ham keksaliklariga qaramay juda baquvvat edilar-da. "E kasofat-ey, odamga oxshab suzilib qaraydi-ya!", deydi yana. A, shuncha vaqt men nima deb zorlandim? Faqat ozlarini shoxlasa hisobmi? "Qarang, shoxining qirrasini oqarib ketgan, kop shoxlashganidan", deb xudoning zorini qilganman, shuni keyin aytib yuribdilar, bu bola ham ancha baloni biladi, bir korgandan aytgan edi-ya, shoxi eyilgan, deb.

Otam o'zi uncha-muncha gapga quloq soladigan emas edilar, shu fe'llari otganmi, ba'zida men ham ozimnikini juft deb turib olaman. Aldanishlarim ham otameros lekin. Uyimizning orqa-oldi vaish, yertok, uzumga chumchuq bilan mayna kun bermas, to'gorayu simga osilgan tunuka qutilarni taqillatib, hay-gala-galayu bilan ish bitmas edi. Otamga kimdir birov qo'yning bir qulochcha ingichka ichagini puflab, vaish ustiga tashlasa, chumchuq ilon deb oylab qochadi, qaytib yolamaydi deb yo'l orgatibdi. Bir kuni qoy soyganlaridan keyin, oyimning hay-haylari, mening qaytarganlarimga qaramay, erinmagan odam, shu ishni qildilar, bir dovot siyohimni isrof qilib boyadilar ham, keyin vaishga tashlagan edilar, hovlimizni shunday chumchuq bosdi, shunday qiy-chuv bosdi, qiyomat qopdi chirqillab oziyam. "E padarla'nati, yomon bo'lar ekan-ku bu", deb ichakni olib tashlaganlaridan keyin ham qani chuvvos tinsa! Shuni qilishlaridan oldin: "Ota, qoying shu ishni. Mayli, qarab turing, ozim puflab, boyab beray", deb yalindim, oyim ham gapirdilar, yarashmagan ishni qoying, deb, yo'q, chumchuq balosini oz qo'llari bilan yo'qotgilari kelib qoldimi, qoymadilar. Xop tomosha bo'ldi lekin, oyim kulib uyga qochib kirdilar, men labimni yi'gishtirib ololmayman, boshimni burib, chekkaga tirjayaman.

Tez-tez quloğim oğrir edi, bunaqa narsalarga otamning uncha ishlari yoq edi-yu, lekin bir kuni mehribonliklari tutib, azza-bazza Razizdan dori olib keldilar-da, öz qollari bilan qoyadigan boʻldilar. Qarasam, tomizgining rangi sariq, “Ota, bu boshqaning dorisi, quloqnik oq boʻladi”, deb oyoq tiradim. “Qani, bahona topib, tomizdirmasang-da, a!”, deb, qochmoqchi joyimda ushlab, tizzalariga qisib, quloğimga majburlab quydilar. Miyamga shunaqa oğriq kirdiki, dodlab yerga yotib qoldim. Meni shaytonlik qilyapti deb oylab, qarab turdilar-da, keyin nimagadir Muqaddasni ushlab, “Kel, qizim, eshitishing tozalanadi”, deb uning soğ quloğiga tomizdilar. Singlim bechoraga mendan battar boʻldi, hovlini zir yugurib aylanib chinqirib, ushlatmadi ham. Shunda keyin qoya qolsalar nima qilar edi, yoq, “E bularning ayyorligini, dori tomizdirmasa-da a”, deb tik turgan koyi, boshlarini yonbosh egib, öz quloqlariga qoysalar! Ana, tomoshani korsangiz! U yoqda Muqaddas yigʻlagan, bu yoqda otam, turib olganlar, boshlarini endi bu yonboshga egib, “Ha valadi zino, ha padarla'nati! Bu Jora chachana quloqqa deb koʻznikini bergan! Öyim yubordi-ku! Kor boʻlgin, quloqni koʻzdan farqlamasang!”, deb oh-oh qiladilar. Men yigʻlashni ham kulishni ham bilmay, faqat ih-ihilayman, gapim toğri chiqqaniga ichimda xursandchilik qamalib qolgan.

Birov uni oqi, buni oqima deb yoʻl korsatmagan, qolimga tushganini oqib tashlayveraman; gapim otmay, alamim kelgan paytlari otamni shu kitoblardagi qattiqqol, zolim otalarga hmm solishtiraman, oxshamaydilar, kitoblardagi chollar yoppasiga benamoz, otam esa kunni har sahar “Ollohu akbar” deb azondan boshlar, azon aytganda oʻzlari ham juda balandlab ketar edilar. Meni qattiq ushlaganlari rost, ammo maktabni tugatib, Samarqandga oqishga boraman desam, “Bolam, domullolarga qilib beradigan on minglik dasturxon yoq menda, mayli, kongling ozingdan qolsin”, deb oʻzlari uchirma qilganlar. Universitetni tamomlayotganimda Toshkentdan ish topganimda ham: “E-e, bolam, men tirik ekanman, Moskovga borib oqimaysanmi”, deganlar. Shu-shu, uyga faqat mehmon boʻlib borib, u-bu ishlarga qarashganim bilan xizmatlarini qilolmaganimni oylasam, armon boğzimga keladi. Darvoqe, bu ham qismat ekan, qaytar dunyo, bolalarimni men ham oqitdim, ular ham dunyoning turli burchaklarida yurishibdi, yonimda otiringlar, menga qaranglar, deb aytish... aytsa boʻladi-yu, lekin ozingni oylab, bolalarning oyoq-qolini boğlab qoyish insofga ham, hayotga ham toğri kelmas ekan.

E-e, mana, chollar otib ketdi, top-top ketib yubordilar. Ixcham sallalarda, u ham borida, bolmasa boshlariga qiyiqcha oralgan, egarda sal qiyshiq otirardilar, egar botarmidi yo bu ham boboycha zakkilikmi, qolda xalachop, noxtaning ipi eshakning boyniga tashlangan, yorğaning maromida gangir-gungir hangomalashib kelayotganlari uzoqdan koʻrinishi bilan, toy egalari yoshroqlarni “Hay, Qoņgırotdan tortta eshak kelyapti. Hay, uchta eshak kelyapti, Istalindan, qaranglar. Orqadan yana beshta eshak!”, deb shoshiltiradi. Eshak boyu kambağalga teng ulov, ishlaganda oldin “Villis” moshin yo “Ural” motosikl minganlar ham pensiyaga chiqishi bilan eshakka otib olar, bu ham bir martaba, endi amalning siyosati yoq, el qatoriga tushib, gap-gashtak eb, xudoyi, toy, ma'rakalarda qidirib yurishning gashti

har qanday mansabdan yaxshi, bir yoqqa borsang, yoshlar yugurib peshvoz chiqib, eshagingdan tushirib, ichkariga manzirat qilib tursa, bunga nima etsin! Ey, kunlar, yillar ğirillab o'tib ketaverar ekan, chollikka da'vogar o'zimiz endi, ammo, albatta, eshak minmaymiz, top-top yurmaymiz, bizda u zavqlar yoq, u chollar bolaligimizni olib, bizni xotiraga cho'ktirib ketgan. O'zimiz ham ulardan boshqacha cholmiz.

Hamma kunlar xotirasi xira emas, bir xillari hali-hanuz ko'z oldimda gul-gul ochilib turibdi. Rahbarning bir o'zi otga kelgan kunni unutilmayman. Ha, akasi yoq, ukasi hali kichkina yo onasi nuqul qiz tuqqan o'g'iloylargacha otga chiqib turardi; ularga orishamiz, otini eshagiga ortib beramiz, o'zimizcha konglini olgan bo'lamiz, atrofida aylanishgandan yurakchalar hovliqqan, botinolmay chetda qolganlarga bodilanib qaraymiz.

Oftob zaldorichorbo'g'ning ustiga o'g'ib, dami qaytib boshlagan, men ham bir o'zim, molga qarab yurgan edim. Rahbar menga bir qarab qoydi-da, ot qamish aralash bo'liq o'sgan suvsiz ariq ichiga kirdi. Men ham iyardim unga. Atrofdan pana, osmon baland, oldimizga kelmasa birov ko'rmaydi, chumchuq chirqillaydi, olashaqshaq hay, aqqa qara, baqqa qara, deb sha'g'illaydi, yana dalaning bebosh qushlari chu'g'uri. Rahbarga qarashishdan boshqa narsani oylaganim yoq, haqqast rost, lekin u egilib, o'tni tutamlaganda, borib orqasidan shappa quchoqlaganimni bilmay qoldim, qo'limga bir narsa ilinib, kaptardek pitirlab bersa! O'g'zinga qatiqlab yuvilgan tutam sochi ham kirib ketibdi. Yuragim qinidan chiqib, o'zimni uvatga otdim. Oro'gi bilan solib qolmasa degan hadik ham bor lekin. A'zoi badanim yonib, boshim ğuvullab ketdi, tilim tutilgan. Uning boy tortib, etishganini ko'rib yurgan bo'lsam ham, o'sha joylari bunday durkun bo'lgani ko'ylagining tagida uncha bilinmas ekan, keyin o'zi nimaligini ham bilmayman, qo'lim tekkanida yuragim chiqib ketdi.

Rahbar esa bir qizargan bo'ldi-da, egilib yana orishga tutindi. Shirt-shirt oroq tortib, shu egilgan ko'yicha menga ğalati qarab qoyadi, "Hiy-y, uyat-a, uyat! Shunday xulqi a'lo o'quvchi-ya", deydi-da, yana oraveradi. Bir konglim - uvatga qochib chiqqanimga afsus, yana bir konglim xoinlikdan ortanadi – ol-e, buzuq-bevafo! – olaman deganim boshqa edi-ku, - endi buni quchoqlab qoyganimga yuzim, hatto ich-ichimgacha shuvit. Lekin ushlab olganimning pitir-pitiri! Xuddi joni bordek, xursand selkillayotgandek, kaptardan boshqa nimaga oxshatishni bilmayman, qarashga hadiklanaman, umrimda birinchi bor ushlaganman-da o'shanda.

Rahbar to'g'risida ivir-shivirlar qulo'g'imga chalingan, yopishganim ham shungadir, menga to'g'ri kelmaydi deb bilaman, lekin endi nari ketolmay, arosatda turib qoldim. Konglim aralash-quralash junbish, yana uning mayda qizil gulli ko'k ko'ylagi ichida boya ushlab olganimning tinmay borib-kelayotganiga qarab, nimadir sezgilarim bilan achchi'gi chiqmaganini anglayman. Ammo kech, qosh kaptar hurkib nari uchgan, o'sha yoqdan silkinib, e-e, yuraksiz, hali kichkina ekansan-ku, deb kulayotgan edi. Rahbarning o'zi ham bir sinf pastda-yu, lekin hozir

birdan katta qiz b'olib, boyagi qiliĝimga xuddi ukasiga quchoqlatgandek, bemalol qoyib bergan ekan. Kop kitob oqimaganimda bunaqa ahvolga tushmas edimmi balki.

Yonboshlab balqigan oftobda oroq tiĝining yalt-yult chaqnashi, o'zimdanda, istagu hayajonlarimdan ham zorroq bir kuchning Rahbarga tortib ketgani, ikki q'olimdan urilgan bir quchoq osmoniy vahima – eslaganda hozir ham o'sha yoshga qaytgim kelib qoladi.

Ĝaziraning k'okmaklari xayolimda to'ldinlanadi. Kunduzning kechki ĝuboridan dalalar ustiga oqish choyshab yoyilgan, qorni d'ompaygan jonivorlar pishillab to'og'ri uyga yo'l tortadi, temir qoziqlari jingirlaydi. Shu vaqtlari qishloqning podasi ham qaytayotgan b'olib, sigir mo'orashi, qoy ba-arashiga Ma'qul yanganing ariyasi ham k'oshiladi: “Ha-ay! Ha-ay-y!”. Shoshmay turing, bu boshlama, unga “Hay, joning chiqqur Tirkash!” degan chorlov ulanadi-da, to'og'ri avjiga otadi: “Hay, o'likkinangga kuyay, Tirka-ash! Molni qaytarmay nima ... eb yuribsan? Q'olimga tushgin, goshtingni eyman lekin!”. Naqarot ham uncha boy emas, faqat unga “gina-gina”lar aralashib, battar balandlaydi: “Ha, o'likkinaginaginangga kuyay, saĝana qolgurga kim qaraydi? Boying sartaxtada chirisi-in! Ha, o'g'zingga...” Shu yerini aytsak b'olmas, lekin Ma'qul xola tortinmaydi, o'g'lining o'g'ziga nima qilishini kuyga solib, butun qishloqqa yoyadi. Oylaysizki, bolasini shunchalar yomon ko'radi, unga o'lim tilaydi, q'oliga tushsa, goshtini burdalaydi. Yoq, bu hatto qarĝish ham emas, kun boyi rozĝoriga unnab, ishi hamishagidek unmagan, yuragiga norozilik botib siqilgan ayolning dardiga ohang berib, nafas rostlab olishi, xolos. Tirkash molni qaytarib boradi ham, uyga bemalol kiradi, onasi bor-yo'gi: “Ha, ko'zginang sitilib oqsin! Bola emas, boshimga balo b'olding-ku”, deb yana qarĝishlaydi-da, chelagini ko'tarib, sigir soqqani shoshadi,

Kuni boyi oftobning qizdirishi, odamlarning ĝala-ĝovuri aralash dim havodan toliqib egilgan shoxlarga bolalarning qiyqiriqlari, mollarning mo'rashi osilib qoladi, kun kechkirib, salqin oralagandan keyin daraxtlar ham shabada bilan shu past shovqinlarni sekin bir-biriga ulashadi. Ĝaziramiz serdaraxt, olma, zaldori, gilos, shaftoli, olx'ori, olmurud, jiyda, yong'og'q, hovlilarda unda-bunda ishk'om, xullasi, tuproqda unadigan neki meva o'gochi b'olsa, baridan bor; hovlilar, shiyponlar k'okka orangan, yo'llar quyuq soya... Eng arzandasi tut, odamlarning tomorqasi yo hovlisining ortasida, paxtaning ichida ham unga imtiyoz, to'og'ri kelayotgan yo'l ham aylanib otadi, chunki davlatning ro'yxatida.

Atrof-javonib k'okalam: paxta bilan beda, makkayi bilan poliz ekini, qayerga suv etsa, ot gurkiraydi: boyimodaron, salomalaykum, semizot, pechak, ĝumay paxtani bosadi, tak-tak, shora, yalpiz, buni pidana deymiz, achchiq itqovun, nordon ituzumni tatib ko'rib, tuflab tashlaymiz; suvsizda osadigan yantoq, qushqonmas, burgan, kakra, eshakmiya, uni yangiligida mol emaydi, lekin ot bo'g'lashga yaxshi, qishga eshakka oramiz, faqat oroq yangi charxlangan bolishi kerak; ipak qurtining pilla o'rashiga bahorikordan chitir, mingbosh yulib tushamiz, yana shu yerdagi buĝdoypoyalarni kampirchopondan tozalaymiz: oftob tagida shamol tonini to'ldin-

tolqin tovlantirgan qirlarga qaragan odamning yuragi hapriqib, ashula aytgisi keladi, shunaqa chiroyli...

Bir eshak otni tushirib, saranjomlab, mollarning emini ham berib, keyin qol yuvib, xuddi katta odamdek tomoq qirib, dasturxon chetidagi o'z joyingizga borib o'tirish... Osh sizga mahtal, suzilmay turadi, quroq korpachaga yig'inib chokasiz, katta lagan ortaga qoyiladi, ana shunda otangiz: "Qani, bismillo, dasturxonga qaranglar", deyдилar-da, sizni alohida: "Iy-e, olishda mazang yo'q-ku", deb undayдилar. Eng shimarib, goshtdan koproq olish payida bolasiz... Oqshomlari supada yotganda osmon to'la yulduz yaqin tushib, har donasi billur chaqnaydi, hisobini olaman deguncha ko'zingiz ketib qoladi. Sahargi uyqu esa shinnidek elimshirin, toymaysiz, boshingizni yostiqdан zor bilan uzib, otirib ham mulgiysiz. Shu mulgigan koyi egningizga bir nima ilib, ko'zingizni yirib-artib, mollarni dalaga haydaysiz. Tong salqini junjiktiradi, tirishib esnaysiz, lekin dalalarning bag'ridan nasim-shabadalar kun chiroyini ufurib olib kelib yuzingizga sepadi, tamom uygonib kerishasiz...

Qani edi u kunlar bir marta qaytsa! Osmon ko'k, yer ko'k, ko'm-ko'k bel boyi shu hilqat ichida qizning jiyaksiz kalta lozimiyu osma tutashtirgan qoshlari tagidan charaqlagan ko'zlarigacha hamon ongimda. Uning faqat yuzi qizardi, mening ham olovim chiqib ketdi, nimaga uning istagiga peshvoz bormadim? Kichkina edim, kichkinalik qildim, bolalikning o'zi yo'l bermadi.

Oylamang, birinchi muhabbatim bu emas, bu – oygonishimning ilk rasmlaridan biri edi, xolos. Lekin aniq chizilib qolgan, ranglari hanuz jivir-jivir qiladi. Unga faqat qiz minib kelgan eshak tushmagan. Albatta, shundoq damlarga eshakni aralastirib eslagim yo'q, lekin, bor edi-da, iloj qancha. Rahbar ham otni boshiga qoyib o'zi tashimaydi-ku. Lekin qanaqaligi yodimdan tamom ochgan. Bozmi, kulrangmi yo oqdir, bilmadim, ishqilib, yuk tortganda kuch bersin deb bir-dar-yarimining burni tilinganini aytmasa, hammasi tekis jaydari eshak, bu kelgani ham oshalarning biri, tuki ortiq emas. Nimaga bir qulo'gi shalpaygan, o'zi shundaymi, birov yo o'zim yomon urganmanmi, xalachop boyniga o'tmagandan keyin qulo'giga solganmiz-da, oroqning orqasi bilan, boshqa iloj yo'q, ayb ozida, aytganga yurmagan, u paytlari tushunmasdi, endi esi kirgan katta odam deb kelib, arz qilmoqchimi, yana ham bir gap aytish qiyin. Lekin bolalikka kirib qolib, bir vaqtlar qilgan achchiqlarimni bugun yuzimga solsa, g'latiyu.

Lekin eshak hu boshda o'qiganim maqolni pesh qildi.

- Nimaga borib Eskijovada hangrashim kerak? – dedi dabdurustdan. – U yer eshak saroyi emas, bozorjoy. Keyin, men, axir, ozimnikilarni korganda, shunda ham dumo'g'im cho'g' bo'lsa, mana, yuribmiz qatorда, deb bu dunyodaa borligimni bildiraman. Gurungimiz shunaqa, hangomamiz shu. Odamlar eshitsin deb emas. Ha, keyin, buning nimasi nomardlik? Eshakning ham mardi yo nomardi bo'ladimi?

E-e, gap bu yoqda ekan-da. Lekin to'g'ri aytyapti, mard bo'lib ham qayoqqa boradi, o'zi bir eshak bo'lsa. Ha, albatta, Eskijuva eskidan bozorjoy, xop, shovqini bor, oldi-sotdining g'ala-g'ovuri, lekin endi eshak hangramaydi, bir-dar-yarim lo'liniki

körinib turadi, lekin u ham aravasini jim tortadi. Bu gap yuk ulovda tashilgan, eshak kop kim-qaysi zamonlarda aytilgan, keyin, toqimtabiat odamlarga, anavinaqalar bor-ku, kuchi yapaloqqa etib, kuchsizlarga korsatib hangraydigan, bor shunaqa odamlar, oshalarga. Eshakning o'ziga tegib ketishini hech kim oylamagan.

Shuni tushuntirmoqchi edim, eshak aytishqoqlik qildi:

- To'g'ri kelgan joyda hangrab, nomard bo'lib yurgan ekanman-da? Boyningga o'zing bexabar aybni qo'yishsa, juda adolatsizlik.

- Mard bo'lsang, kuchingni korsat kopchilikning ichida, deyilyapti. Meningcha, buning yomon ma'nosi yo'q, - dedim joyali qilib.

Ey, juda g'lati-ey, eshak bilan gap talashib otirsam. Odamning gapini eshakka uqtirish hazil emas ekan.

- Xop, unda bu gap-chi? - deb yana oyo'g'iga tiraldi qashshang. - "Eshak baxshi bo'lmas, yomon yaxshi bo'lmas", deyishadi. Yana meni yomonga chiqarishyapti. Axir, o'zimizga baxshiman, odamlarga emas. Avjini baralla olaman, kuy pardalarim toza, xonishlarim qadimiy, o'zgalardan ko'chirish yo'q. Hali biron eshak ayb taqamagan, hammasiga ma'quldirki, jor bo'lishadi. Mana, o'zingiz baholab ko'ring, musiqani tushunsangiz kerak?

- Yo'q, yo'q, rahmat, - deyman shosha-pisha. - Qulo'g'imni ot bosgan, musiqaning ko'chasidan o'tmayman.

O'zi bolaligidan hangrashini yomon koraman, minib turganimda hangrab qolsa, uyalib, noxtasidan tortib, kallasiga solar edim, Endi mahallaga varanglashi etmay turuvdi. Ha, bunga birov orgatgani aniq, eshak kallasidan chiqayotgan gaplarni qarang. Keyin, men ham bilmayapman, eshakning yaxshi yo yomoni qanaqa bo'lishini. Bir xillari bor, tepong'ich, bir xillari tishlang'ich, xop, bunaqasini yomon deylik, lekin yaxshisi qanaqa? Yo bu gap bilgani uchun yaxshilari qatoriga otadimi? Lekin tayyorlanib kelgan, xiyla bilgich, gapiga gap topish qiyin.

- O'zi sensiz ham bemaza qo'shiq urchigan. Iltimos, karnayingni tortma, - deb murosaga chaqirdim. - Qo'shnilar ja oshnosini topibdi deb oylamasin. Xumori tutayotgan bo'lsa, ana, shahardan chiqib, bir ovloq dalani top-da, avjini baralla olaver.

- E-e, - dedi eshak qulo'g'ini salanglatib. - Hozir dalaning ovlo'gi qoptimi, yantoq bosgan cho'lgacha egali. Hangrashga ham pul so'raydi.

Obbo, buning fermer bilan ishi bormi! U ham yerni eshak hangrataman deb olmagan-ku. Dalami, cho'lmi, o'ziniki bo'lgandan keyin, nima qilsa, ixtiyori-da, xarajatini chiqarishi kerak-ku. Yana shuncha o'g'iz solganni toydirsin, bir xillari chidamay, bir bosh-bir qulo'g'ini olib qochib ham ketyapti, eshak ko'ziga korinadimi shunday pallada! Ko'ryapsizmi, kimdir buzgunchi yoldan urgan buni, bor, yerda hayvonlik huquqingni talab qil, kim qayerda hangrashiga erkinlik bor, deb tezlagan. Eshakka savod orgatsa, o'zini oqitishini oylamagan nodon! Ammo-lekin

men nima qilib beraman bunga, fermer yo advokat boʻlmasam? Bolaligimdan kelibdi deb, nima desa quloʻgimga quyib olmayman-ku.

Özinga kelsam, aytdim-ku, oʻtkizgan joylari bordir, hammasi esimda yoʻg-u, lekin urgan paytlarim boʻlmagan deb ayto olmayman, axir, eshakni urmasa eshak boʻlmaydi-da. Eshak - kaltak bilan eshak. E-e, shoshmang, hozir Rahbarni esladim-ku, shu bilan bir qiziq ish boʻlgan, lekin buning eshakka aloqasi yoʻq, agar ham tuʻgdirishga borgan qaynonasi Chʻoʻlqindiga, tuman markazidagi tuʻgruqxonaga eshakda qatnaganini aytmasa, ajoyib voqealigi uchun sizga ilinyapman.

...Shu desangiz, bir kuni shu Rahbar oʻlib qoladi. Ha endi, eridan otasiga, ya'ni erining qaynotasiga oʻldi deb telegramma kelgandan keyin shumxabar qoraxat-da. Yomon boʻlgan! Yoshgina narsa tap etib oʻlib qolaversa, yaqinlariga oson tutasizmi! Kanal suvi tortganmi, u yoqda juda kattalari boʻlar ekan, yo notoza havodan kasallangan, yo biron palakat narsa chaqqan, yo, - koʻzga yaqin edi, har xil odam koʻp, - koʻz tekkanmi, koʻzikkanmi, uchinganmi, xullasi, bu yoqdagilar ming kulfat xayolda, lekin har xil xayol kelinchakning oʻligini tiriltirib, hayotga qaytarib qoymaydi, albatta, bechora oʻldimi – ketdi. Yana odamlari har joydan borgan, tayinli qoʻyindisi yoʻq odamyovvoyi chʻollarda! Ha-ya, aytmabman, Rahbar maktabni bitirib, hamshiralik kursida oʻqib yurganida shu nariroʻgimizdagi mitanlik yigit bilan gapi bor ekan, kursni bitirar-bitirmas toylari oʻtib, keyin ikkalasi yoʻllanma bilan chʻol oʻzlashtirishga, ishga deyishadi-yu, lekin asli pul ishlashga Mirzachoʻlga ketgan. U yoqda joylashib, endi tomir qoʻyaman deb turganida, yil yo oʻtadi, yo yoʻq, - eh, bu musibat hech kimning boshiga tushmasin, - oʻlgani toʻgʻrisida shu tilgirom oshigʻich kelib turibdi-da. Shuncha talotum bilan yana oʻlikni vaqtida joyiga berish ham kerak. Yaxshiki bular seruruʻg, xeshu qarindosh darrov gangigan otaning qavatiga kirib, yolgiizlangani qoymagan. Xabari etib kelgan kechqurun-oq nechchi xabarchi, chop-chop, yugur-yugur, u xolasiga odam yubor, kasal yotgan bu katta ammasiga bildirma, it egasini tanimagan shu vaqti iyak qoqib bermasin taʻgin, amaki-toʻgʻalarni yiʻg, kuyov tomondan yiʻg, gorkov ham joy kavlab turadigan, e-e, xullas, mayyitni ortib kelgani bir gurzavoy moshinni ham yollab, sovxozning shaloq avtobusiga iyartirib, kechalab yol bosib, tim-tirs saharda Mirzachoʻlning Bachqirmi, Qachqirmi degan qayerigadir etib, Rahbarning devori yoʻq, lekin hayhotday darvoza qoʻnqaygan hovlijoyining bu chekkasiga tushar-tushmas: “Voy, bolam! San oʻlguncha man oʻlmaymanmi!”deb giryai qazoni boshlab yuborishadi-ku! Jim-jit yotgan osha Bachqir yo Qachqir uyqudan sapchib, arining uyasidek toʻzgi maydimi! Kayfi uchib uyʻgongan kuyovpolvon ham ishtonchang hay-haylab chiqadi. E hazilmi, uxlab yotsangiz-da, eshigingizda dabdurustdan dod solib qolishsa. Esdan oʻgayozgan, lekin chʻol korgan bama'ni yigit-da, elas-elasda qarab, kim qaytganini tusmol qilolmasa ham, bir-da-yarim ana-mana oʻladi deganlar ham shu yerda, esa, xay, aytimlarga qaraganda ayol kishi, men bilmagan biron qarri-qurri momoy xolamiz omonatini topshiribdi-da, deb fahmlab, “Voy enam! Volidayu mehribonim enam”, deb yiʻgichilarga qoʻshiladi. Özingiz bilasiz, ayol oʻldimi, kampirmi, yoshmi, yiʻgi-yoʻqlovda bizni tashlab qaylarga ketgan soyabonim onam, mehribonim onam, boʻladi. Kongil yaqinlar quchoqlashib, elka qoqib, dod-

voy boshqattan avjga minib, yana pasayib, rasmi yigiga bir toyib olgandan keyin sekin razm solsalar, kuyovning “vo enam”i sal boshqacha, arz-dodi xotinidan kora bundan on etti yil oldin qaytish boʻlgan buvisiga, uncha kuymayapti, kekirtakka zor berish ham yoʻliga, sal shaytonligi bor, taʼgin qarasalar ishton ham qasamga kelgan, yupqalashib, qaragan odam koʻzini olib qochadi. “Hay, polvon, baqirishdan boshqa kallakerak ishlar bor, mayyitga odam ketdimi?” - “Kim, kim ketadi? Mayyitlaring nima? Sizlar yiglab kelganga xop deb qoʻshilib turibman. Oraga gap suqqani qoʻymayapsizlar.” - “Iy-e, ʻgirt mast-u, u yoqda xotin u ahvolda, buyoqda bu boʻkib ichsa, nokas!” - “E boʻkibmas-e, ikki piyolaga ham boʻkadimi? U ham qacho-on - oldidan kelganimda olti yarim-ettilar edi.” - “Oʻlikning oldidan kelib, paminka qilding hammi? E-e, oʻzing oʻlib ketgan ekansan, beti yoq esh-shak!” - “Bet bormi munda? Bir piyolani korsa boʻldi ekan-ku! Shorlik bu ovloqlarga shu ahmoqni deb ergashib kelib, nobud ketsa, bu ketyalang...” Ana, shu yerda kuyovning oʻzini oqlashi olovga battar moy quydi. Toʻgrisini aytib qoʻya qolmaydimi, choʻl yigiting ikki piyolaginada toxtashiga ishonadimi shu kuyib turganlar. Yolʻgonning alamidan kuyovtorani tepkilab tashlashlariga sal qoladi, yaxshi ham, Rahbarning bu yoqdan borgan Vosit oʻgasi, koraftaroq odam, “Hay, chuvir-chuvir qilmanglar. Koʻp gap – eshakka yuk. Kormayapsizlarmi, buning miyasi ketgan. Miya boʻlsa, ketiga bir narsa yopardi. Nima deyayotganini oʻzi bilmayapti. Endi bu yoʻgini koʻraylik. Oʻlikka ham odam ketmagan choʻgi, mushtiparni, yorib-netib qoymaslaridan etkizib kelishni oʻylaylik. Qaytish yoʻl ham bor hali”, deb joyali gap qiladi. Ana, oʻzi uxlab yotganida biron momoy emas, xotini oʻlib qolgani endi kallasiga kirgan kuyovtora: “Voy, meni tashlab qaylarga ketding, Rahbarjon!”, deb haqiqatan ham rosmi vovaylo koʻtarmaydimi!. Azadorlar boshqattan taʼsirlanib, chuvvos battar avjga minadi. Rahbar ham tirikligida koʻp kelinchakning biri boʻlib yurgan boʻlsa, endi hamdu sanosi osmonga balandlagandan keyin, birdan qadri ortib, bunday juftidan ayrilganiga chidamay kuyovtora guppa tashlab yuboradi.. Balki oʻzidan ketganga solgandir oʻzini, taʼgin meni javobgar deb sudga sudra-sudra qilishmasin deb. Lekin asli oson tutasizmi, yigit odam jondan suyganmi, suymaganmi, rozʻgorga zaril kelinchagidan judo boʻlib, qolida chaqaloʻgi bilan choʻlda qolsa! Janozaga toplanganlarning bitta oʻlikni ikkita qilgan boʻlmasak taʼgin deb hurrasi uchadi. Hamma ham aqlini eb qoʻymagan, darrov betiga suv-puv sepib, inqillashini eshitgandan keyin, Vosit toʻga yana mudabbir, kim oʻlikka boradi, kim darvoza oldida tovush berib turadi, kim tomoʻgi quriganlarga choy etkazadi, kim qorashorva osadi, xullas, kalapatra bosilib, marosim rasamadi yoʻlga qoyilib, yigʻi maromga solingan shu vaqti Choʻlqindidan kuyovning enasi, yaʼni Rahbarning qaynonasi eshagini xalalab kelib qolmaydimi! Qarasa, hovli toʻla yigʻin, yigʻichilar, kelinga aza ochilgan, oʻgli esa ortada Alpomishning loshiday choʻzilib yotibdi. Ana, endi enaniki tutmaydimi: “Iloyo, aytganning oʻgzidan chiqib yoqasiga yopishsin! Oʻzim hozir atala ichirib kelyapman-ku. Sen, yer yutkur, nimaga ketingni korson qilib yotib olding, xotinni men tuʻgʻdirdimmi?”, deb hovlisupurgini oʻqtaladi, oʻgil osha koʻp dakkiga qolgan ketini koʻtarib qochib, oʻzini uyga uradi; shim-pim kiyib olmasa qoʻymaydi bular.

Ana, bu yoʻgi koʻzyoshu tomosha! Ya'ni Rahbarning mayyitini olib kelib, uyini korsatamiz-da, keyin yurtga olib ketamiz deb kelganlar ahmoq boʻlganiga xunob, bir xillari kulgidan tuyilib, elkasidan necha musht egan, tort-besh xotin xursandlikka opkasi toʻlib, boshqattan huvillagan.

E-e, xullas, “nima boʻldi-nima qoʻydi”lardan bilishsa, Rahbarni oʻldiga chiqargan kuyovning oʻzi, aniq oʻzi emas-u, “ozbekskiy peredavay” qildirgan telegrammasi. Rahbaroy yukli ekan, oy-kuni toʻlib, vaqti-soatida tuʻgruqxonaga etib, yana shu vaqti-soatida tuʻgib ham beribdi. Osongina! Qoʻchqordek oʻgil. Besh kilolarga borar ekan. Kuyov oʻziga sigʻmay pochtaxonaga chopgan, qaynotamning boyniga suyunchini naqd qilib qoʻyay deb. Pochtachi qizga: “Davay, yoz: “Rabar ul tuvdi Uchta soʻz”, deb buyuradi. Boʻlim pochtasida oʻtirgan bu qiz oʻzbekcha gapirishni bilsa ham, orischaga oʻqigan ekan, “Kak budet po-russki?” deb sorab oladi. “Qanaqa poruskiy? Oʻzbekskiy peredavay. Zakon imeyu prava. Uchta soʻzga, ma-e, uch som. Izdacha ne nada. Senga padarka”, deb mardlik ham qilib yuboradi otacha. Oʻzbek tili haqida yangi gaplar chiqqan vaqt, pochtagi qiz tumandagi dugonasiga ulanadi: “Zinulya, prinimay: “Ra-bar ul tuvdi”. Zina oʻzbekchani yantoqqa sudrab u-bu gapni anglar ekan, “Kto, rukovoditel?”, deb aniq qaysi rahbarning oʻlganini bilib olmoqchi ham boʻladi.. “Chto ti melesh? Eto po-uzbekski, imya. Jena, naverno. “Ra-bar ul tuvdi”. Tak i pereday”, deb izohlaydi pochtagi qiz. “Ladno, Rabar ultuvdi, tak, uluvdi, mne kakaya raznisa”, deb Zinaxon eshitganini sal chala qilib Sirdaryodagi Galyaxonga uzatadi, Galyaxon Samarqanddagi Mashaxoniga... shu bilan, Rahbarning oʻgil tuqqani haqidagi xabar hukumatning rasmiy baobro qoʻgʻozida “Rabar uldi” deb etib kelgan ekan-da-ey!

Zor-a? Bunaqasini toʻqib boʻlmaydi, hayotning oʻzi toʻqib qoʻygan! Yana kopini aytib bersam boʻladi, masalan, Mamatov Shermet degan fizkul tura muallimimiz qahratonda Bulungurning muzini yorib chomilar edi, bir kuni, daraxtlarni bulduriq bosgan saharda Samida xola suvga borsa, bir yalangoch qizil hokiz, hokizning kiyingani boʻlmaydi-ku-ya, ishqilib, dev bir narsa chekkadagi muzni qars-qurs sindirib suvga shonʻgib, yana qaytib chiqibdi, pishqiribdi, taʻgin kampirga koʻzi tushib e-e deb uyalar emish shu qizil hokiz, kampir ham esi teskari, qolishini ham, qochishini bilmay turavergan; eh-he, keyin qishloqda tuppa-tuzuk odamlarning bolasi, Samarqandda tort yil oʻqib kelgan, bu yoqda qiz unashtirib qoʻyilgan yigit yomon bir tuzalmas qichimaga chalingan, soʻg odam shu qorasovuqda suvga tushadimi, deb rosa gap boʻlgan. Hatto bir-ikkita odam, xayr, oʻzi tayyor yalangoch ekan, kampir odam - sizga uyati yoʻq, a yaxshilab qarab, yashirib yurgan qotirlarini koʻrib olmabsiz-da, bizlar ham bilardik, deb Samida xoladan koyingan ham. Keyin kelin boʻlmish tomon odam qoʻyib, kishibilmas poylatganmi yo oʻzi tushuntirganmi, ishqilib, suvayiqning toyi otdi lekin. Taʻgin, bizdan bir sinf yuqorida oʻqiydigan Xolbekning onasi bitta buʻgaltir bilan qochib ketgan; yaxshi koʻrib qolish degani shunaqa savil narsa ekan, oltita bolani onasiz etim qoʻyib, ha-a, konglini xudo olsin, besharm, uyati yoʻq, buʻgaltirning ham xotinida uchta bola qolgan, buʻgaltir Uchquloqdan, bizlar uncha tanimaymiz, molbozorda dallol ham ekan, biron yaxshi koradigan joyi qolmagan shekilli, Xolbekning onasi ikki yildan keyin

qaytib kelib, yana rozgorini qilib ketaverdi; shuncha bolani boshqaga ishonib bo'ladimi, axir, keyin qaysi xotin qarashga rozi bo'ladi, otaning ham boshqa iloji yo'q, kongan. Bunaqa yaxshi korishni tushunmaganimizdan, gap ochilsa, tanimasak ham uchovini boralarab so'kar edik. Ayniqsa Xolbekning otasi latta ekan, ornida bo'lsak, "Qochib ketib, endi nimaga kelasan? Yo'qol, sendaqa xotinim yo'q!" deb haydab yuborar edik-da, axir.

Shunaqa gaplar ko'p bo'lgan.

Bizlarning uncha ovloq emas-u, har holda shahardan olisroq Ğaziramizda qoshiga qalin osma qoyadigan tojik, erini qattiq ushlagan eroni yangalar, ikki uy qirim, uch-tort uy ufa-tatarlar yashardi; yana qachon qayerlardan kelib qolgan Ivanbovo degan oris ham, uchta cho'chqasi, ikkita xotni bilan turardi, bittasi - terakdek daroz Valapa, ya'ni Valya opa, atrofdagi bor xotinni shu tu'g'dirgan, mening ham kindigimni kesgan, u vaqtlari tu'g'ruq uchun alohida ulov yo'q, yo'lmoshinda shaharga olib borishga to'g'ri kelgan, Valapa esa doimtayyor momodoya, to'lgoq tutganning uyiga o'zi borib, baranchugini tu'g'dirgan, kindigini kesgan. "Baxtimizga shu Ivan bilan Vaalapa ham kelib qolgan ekan", deydilar onam. Valapa kindigini kesgan bolaning sano'gi yo'q; ikkinchisining otini bilmaymiz, Nenamidi, Varamidi, cho'chqalarini qaytarishga chiqib qolganida ko'ramiz, mudom uyida, Valapa yurib, rozgorni bu qilsa kerak. Ivanboboga oris bo'lgani uchun ikkita xotin olish mumkin bo'lganmi, yo balki birovi xotini, birovi o'zining yo xotining singlisi yo opasidir, lekin bizlar ikkovi ham Ivanbovoga tekkan, deb o'ylar edik. Cho'chqa degani bizdagi hech bir hayvonga o'xshamaydigan, ham qiziq, ham bir qo'rqinchli, ola-bula tongiz ekan. Bulungurning boyiga tushib qolsa, ichiga kirmay, ariq labini kavlab xur-xurlab yursa ham hayda-hayda bo'lib, bir xil odamlar irganib, uch-tort kunlab Bulungurdan ichgulikka suv olmas edi. Cho'chqani talatamiz deb zor-zor itlarni olib boramiz, olkishlaymiz, Vafoqulning chopon kuchugi bor edi, shu ham vovullab boradi-da, taqqa to'xtab, joyida irillab turaveradi, cho'chqa esa iy-e, menda qanaqa ishi bor ekan deb, kichkina ko'zlarini ajablantirib hayron tikilib qaraydi. Bir uzoq qarindoshimiz kolxoz raisi edi, Ivanbovoga hamsoya, bitta o'g'li Sardorni nimagadir katta qilishga shularga bergan, haligi dumaloq kampiri qaragan; Sardor gapiga "nu" deb qo'shib gapirar, juda toza yurar, bizga o'xshab eshak minmas; ilgari sunnat toylar o'gil bola tort-beshga chiqqanda, ishqilib, maktab yoshigacha qilinib, katta o'tar, mening toyimga otam ot soydirgan, ana shu Sardor ot goshti emayman, menga to'g'ri kelmaydi, deb turib olib, "Vo-o, oris bo'lib ketibdi! Cho'chqa eydi!" deb rosa hasadimizni keltirgan. O'shanda ham orislarning bizga o'xshagan bolakcha bir xalq ekanini bilib, ot goshtini nimaga emay, cho'chqanikini eyishini tushunmas edik. Harom bo'lsa ham, bir tishlam eb ko'rsakmikan, deb yurar ham edik o'zimiz.

Yana bir Jamila degan qizni sakkizinchi sinfdan o'z farzandiga rahmsiz noinsof otasi Galatepa degan joyga yomon bir odamga erga berib yuborgan, shunday yosh narsani olgandan keyin yaxshi odam emas, yomon bo'ladi-da, lekin, bilmadim, o'n yillardan keyin shekilli, shu Jamilani uchratdim, tort bolali bippa-binoyi xotin bo'lib yurgan ekan, ukasi O'rin biz bilan o'qigan, uylanganda toyiga borgan edim,

shunda kordim, lekin o'zgarib ketganimga meni tanimadi, maktabda gavdam kichkina edi-da. Shularning sinfidan Gagarin degan Mamarasul Bulunğur bandidan suv olib, sekin tepaga orlaydigan Rovdon ariqqa traktor bilan aғnab tushgan, naq yigirma quloch balanddan! Maktabimizning bitta “polutorka” bilan temirtish ğildirak “Universal” traktori bolar, gurzavoyning faqat kabinasida ruli bilan taxtasi chala kuzovi qolgan, lekin “Universal”ni chuqilasa, “zavadit” bolar edi. Mamarasul shuni “zavadit” qilib haydab, Rovdonning ustidagi yo'lda rulni burishga kuchi etmay, “Universal–puniversal”i bilan qulab tushgan, xudo asrayman desa, hech gap emas ekan, balo ham urmagan. Shu bilan, Gagarin osmonga, Mamarasul pastga uchgani bilan buning ham oti Gagarin bolib ketgan.

Bulunğurimiz burunlari o'zi ham onda-sonda odam chaqirib turgan, lekin biz tomonlarga ham elektr kelgandan keyin yiliga bir-ikkita tortib ketadigan bolib qoldi: kimdir tok bilan baliq ovlashni korib kelgan, uni boshqalar ham organgan, shu bilan baliqqa qiron kelgan, shirmoy bechoralar oppoq qorni bilan chappa oqib qolaverar ekan, shuni olaman deb bu yoqda o'zi suvga sim tiqqani esida yoqlar... “Chiqasi kelsa, egasi boshchi” degani shudir-da. Ha, aytganicha, Xursan pes degan odam bolar edi, yoshi ottizdan oshgan, hech kim qiz bermagani uchun bexotin, o'zi pes-mes emas, bu ham traktori bilan yonib ketgan, shundan qollari, betlarida katta-katta oq-qora kuyiklari bor, to'g'ri oti Xursand, bojamaligidan odam irganib, otini ham to'liq aytgisi kelmas edi. Bu keragi yoq gap nimaga esimda turibdi, hayronman. Shunga hech kim qizini bermaydi deb achinganimdan bolsa kerak. Qiziq narsalardan, Vaska degan toriq ot bor edi, Qirim degan joydan kelgan egasi Ridvan aka bir nima deb, bizlar duo o'qiydi deb oylardik, keyin hushtak chalsa, orqa oyoğida tik turib, oynab berardi. Ridvan akadan qorqardik, biron yomonlik qilganini eshitmaganmiz-u, lekin gapiga ishonmagan odamni tuxum tuğdirib, yomon uyatga qoyar edi. “Ha, shunaqami? Iy-e, tuğib qoydingiz-ku”, deb qoli bilan odamning ketidan tovuq tuxmini olib berardi-da. Tuxumni siz tuğmaysiz-ku, lekin u uning qolida qayerdan paydo boldi, bilmay qolasiz. Baslashib, Valibobodagi chinorga o'zini oyoq-qoli, hamma joyidan arqon bilan qattiq chandib boğlatib, keyin hech kim qarashmasa ham boshalib olgan, biz kormaganmiz, korganlardan eshitganmiz, shundan o'zini korganda, bu yoqqa kel deb chaqirib, tuxum tuğdirib qoyishidan hadiksirab, yaqiniga yolamas edik. Jinlardan oshnosi borligi ham balki rostdir, chunki Qambarotada ancha yildan beri qurib yotgan qayrağochni qadamjoniki ekanidan qorqmay, essto degan traktorda torttirib kelib, qishga otin qilsa ham hech narsa urmagan, uchinmagan. Yana bir Alim oğa degan, Qirimdan Ridvan aka bilan birga kelganmi, yoqmi, ishqilib, bitta xalqdan, yoshi katta kishi, moyga botib traktor tuzatardi, lekin kochaga chiqqanda toza kiyinardi, xotini bir muloyim kampir, doim kelib oyim bilan gurunglashib otirar, o'zlarining bolasi yoqligidanmi, menga shirin gapirib, tinmay duo qilar, eru xotin ikkalasi traktor garajining bir chetidagi ğaribgina uyda turishar, kampir: “O-o, bir choynak tillam bor edi, askarlar mashinani to'g'rilab, chiq, desa, hali qaytib kelamiz-ku deb, uyning ortasiga komibman, qolib ketdi shu bilan”, deb oğir so'lish olar edi, u paytlari tilla nima, narxi qanchaligini bilmasam ham, bir hovuchginasini ololmabdi-da, deb juda achinardim. Yana bir tatar abziy bolaridi, uyi shundoq

Bulungurning labida, baliq ushlashning piri deb bilamiz, qarmoq solayotganda ilgakdagi chuvalchangga: “Mening qolim emas, abziyning qoli!” deb tuflardik, u paytlari baliq kop edimi, taassubimiz kor qilardi lekin. Ximiya muallimimiz Minixanov ham tatar, ufa-tatar, oti qiziq - Fan; xotini Pilura - Flyura opa kutubxonachimiz, kichkinalardan kitobni qabul qilib olayotganda, albatta “Yaxshi! Qaniy, keyin nima boldi, aytaver-chi”, deb oqiganimizni erinmay sorab olar, undan maqtoV eshitish uchun zehn qoyib oqir edik. Uylari oqlangan, atrofi taxta panjara, ikkita qizi ham ohorli kiyingan, keyin juda yaxshi oqir, kattalarining tili tatarchaga ketsa-da, bolalari ancha toza gapirar, bizni nimalaridir ozigaga tortib, yana nimalaridir itarib turar edi.

Keyin-ey, odam bir yoqda sal turib kelsa, darrov oZgarib, tili ham buzilib qolar ekan. Gulomning Iskandar degan akasi Toshkentga oqishga borib, yiqilib, bu yili kiraman deb osha yoqda qolganida, oltimi, etti mi oydan keyin otasi borib oldiga solib keldi; ketganida tili girt oZimiznikidek edi, lekin kelganidan keyin tishining orasidan chirt tupurib, “botta-shotta” deb gapiradigan bolib qoldi. “Otdagilar shunaqa gapiradi, “beda-sheda” deyishlaring notoVgri, sila maqvossila ozi”, der edi, tavba. Oqishga kirgani boshqa ketmadi, lekin tilini ham tuzatmadi. Iskandarlarning qaysisi deb soralsa, “Ha, oZimizning Iskandar botta-da”, deb aniqlik kiritilar edi. Gujo-gujo tojik yangalar “i-i” deb choZsa, toshkentliklar “botta-shotta” deb gapirishini oshanda bilganmiz.

Ey, juda qiziq, dongdan, oti esimdan chiqdi, bir yigit armiyadan ozi bilan bitta qiz olib kelgan, Gaziraning bozoriga olib tushib, etaklashib yurgan, ikkovining ham koZida qora koZoynak, ikkovining ham oVgZida pista, yuraymi, yurmaymi deb bir-bir qadam bosib oZlarini rosa bozorga solgan, gur ergashib tomosha qilganmiz. Ha, dongdan deganim, qishloVimiz ikkiga bolinardi, Bulungurning u tomoni baland yerlar dong, bu tomoni pastlik, Past, dong, odamlar ham qayerda turishiga qarab donglik, pastlik deyilar edi. Ammo ham, shu qiz rosa tomosha bolgan: sochi sariq, yiVishtiriqsiz, ya'ni elkasiga yoyilib tushgan, koZida qora koZoynak, koylagi kalta, lozimi yoq oyoqlari ochiq, osmondan bir sariq narsa yonib tushgandek rosa gap qoZVgalgan. Keyingi bozor kelmadi, undan keyingilariga ham – ketib qolibdi. Tekin tomoshadan ayrilganimizga kop afsus qildik.

Eshonxonov degan keksa muallim bor edi, akamlarni ham, opamlarni ham oqitgan, pensiyaga chiqib ketib, bizlarga kirmagan. Lenin ordeni olgan deyishardi, Kop koramiz albatta, kostyum-shim, galstukda qirrali yurardi, shu kishining qizi doxtirlikdek zor oqishga kirgan, lekin ozi bilan birga oqigan xorazmlik yigit bilan topishib, otasini juda nosoqqa qoVgan. Qochishga qochib ketmagan-ku-ya, lekin sovchilari uch-tort marta qaytarilgan, oxiri zor toy ham boldi, biz ham toyib oynaganmiz, Zamira opani “Volga” moshinda kelin qilib olib ketishgan. Ikkovi ham Samarqandda ishga qolgan ekan, eru xotin oy otmay kelib turardi, Gaziramizning yakkayu yolViz bekatida koramiz, Zamira opa oqdan kelgan koVhlik kelin, kuyov baland boyli, jingalaksoch yigit, nimaga qizi Eshonxonovday odamning obrosini tokib qoVdi, degan visir-visir chiqqan, bizga qoronVi. Keyin Turobning matpak – matematika fakul tetidagi opasi ham ozi bilan oqigan

urtutlikka, Salimaning biyopak - biologiya fakul tetidagi opasi surxondaryolikka tegdi, Jamolning akasi texnikumdan nurotalik qiz olib keldi, bular Eshonxonov domlaning qizidek katta gap bo'lsa-da, ishqilib, nimasidir xavotirli, nimasidir alamangiz bo'lib, qishlo'gimiz rishtalari keng dunyoga bo'g'lanib borayotgani konglimizga notinchlik solar, o'zimizni ham osha yoqlarga tortqilar edi.

Bilmayman, nimaga bunday, kitobning ta'sirimi, oylar girdobiga tushib qolganimdanmi, odamlarning ichida yol'gizlanib yurar edim. Hech kim meni chetga surmagan, kutkilamagan, ish qildirgan bo'lishsa, qaysi bola ishlamagan, bu ham bir oyin, faqat jonga tegib qoladi, oyin tegmaydi, bari bir, ikkalasining ham oxiri birdek charchoq yo gap eshitish. Lekin oldindan shu kichkina boshimga hamma unday, men bunday, deb ko'p oy suraman. Maktabni boshlab ham qamoqqa tushdim. Ha, erkin yurgan bola, qoraga qamov bo'ldim-qoldim. Oylarim bilan. U vaqtlari o'qishning birinchi kuni yangi kiyimlarda, guldasta kotarib borishlar yo'q. Xayr, qo'lni kirsovunda qirtishlab, betni ishqalab yuvib, boridan tozaro'gini kiydirib, qayta-qayta: "Darrov tuproqqa bulab, moltonining jandasi qili-ib kelmagin, o'ldiraman lekin!", degan ming zarda quloqqa quyilgandir, chunki yangisini olish uchun Samarqandga borish kerak, obergan bilan ham, es-hushi oyinda bola, ertalab kiydirib yuborgan yangini tushga qolmay eskirtirib qaytamiz. Guldastaga kelsak... orib molga bersa bo'ladigan gullardan xursandchilik kunlarida ipga bo'g'lab guldasta tuzib, birovga siylov tutishni, hu vaqtlar otib, kitoblardan o'qib bilganmiz. U kitoblarda doim bayram, hammaning dumo'gi cho'g', gaplari ham qarsillgan, sira biznikiga oxshamaydi. Osha kuni endi bir nimalardan ayrilganimizdan xavotirlanib, boynimizni qisib maktab oldidagi maydonga to'da bo'ldik, urishish-siltash bilan bir amallab qing'ir-qiyshiq saflandik. Bu yo'gi qanaqa bo'lsa deb anqayib turganimizda qolimizga bir xil yap-yangi kitob-daftar ushlatib qo'yishdi, keyin shularni bizlarga yaxshi o'qisin, adab-tarbiyali o'quvchi bo'lsin, deb tekinga berganlari uchun chap-chap qarsak urdirishdi, qo'ltig'imga qisganim esimda yo'q, qarsak chalaman desam, bari yerga sochilib tushdi. Biram sazoyi bo'ldim lekin! Hammasidan ham hali yoshing etmaydi, ergashma menga, desam ham keyinimdan qolmay kelib, endi chekkada, tol tagida ichi kuyib otirgan Abdualimning ko'zi oynab tirjaygani otib tushdi. Kitob-daftarlarni yerdan qoqib-puflab oldim-u, lekin endi, bari bir, boshqalarniki yaraqlagan yangi, meniki esa eskirib, tutishga yaramaydigan notoza tuyulib, maktabi ham ko'zimga yomon ko'rinib ketdi. Ta'gin deng, ertasi, o'qish boshlangan kuni, Xatira muallimning qo'lini qonatdim. Muallim har partaga ikkitadan o'tirgizib, "Qo'llaringni partaning ustiga qo'yib, damgina quloq berib o'tiringlar", deb tayinlagan edi, bunaqa qimirlamay otirishni bilmayman, birpasda diqqatim oshdi, pitir-pitir qildim, partaning qopqo'gi g'alati, oshiq-moshiqli, buklanar ekan, ochib-yopib oynashga tushdim, muallima jahil bilan kelib qars yopaman degan edi, jimjilo'gi qopqoq tagiga kirib qolib, qiyilib ketdi! Qo'li oppoq ekan, qizil qoni tirqirab chiqdi. Rosa qorqdim, Xatira opa vuyvuylab qo'liga romolcha bosdi, qoni romolchadan ham sizib chiqdi; menga hech narsa demadi, lekin endi bo'ldi, tamom, maktabdan haydalaman, deb oyladim, o'zim ham shuni xohlab qoldim. E-e, maktabini ham, dedim! Mollarimni boqib yurganim

ming marta avlo-ku. uni qilma, buni qoy, yoq, oz erkimcha yuraman! Bu yerda dalaga chiqishga ham qol kotarib, nimagaligini uyalmay aytish kerak!

Ana shunaqa, Ğaziraning ortasida maktab partasida mixlanib, shu Ğazirani soĝinishga otdim. Qipchoqariq boylariga chiqaman, zaldorichorboĝdan danak terib, tosh bilan chaqaman, olmaning kechki navlariga maza kirib qolgan, tishlab korib, eng shirinini eyman, hushtak chalaman, xirgoyi qilaman, umbaloq oshaman, erkim ozimda! Oxiri Bulunĝurga tushib, quloch otib suzaman, ariqning ustiga egilgan toldan kalla tashlayman, sovqotganimdan keyin tuproqqa kōmilib isinaman – otirgan joyimga yiĝinib ĝujanak bōlib olaman; meni dars tinglayapti deb, erkin hasratga berilganimni hech kim bilmaydi.

Lekin yolĝizlikdan qorqaman ham. Maktabga borganimdan oldinmidi yo birinchi sinfdan keyinmidi, har qalay, ora uzoq emas, pishiqchilik edi-da, bizda shu mavsumda - avgustning oxiri, sentyabrning boshlarida tōyga ruxsat bor; uyi bozorjoyga yaqin Hotambovo nevarasini kesdirib, kechqurun bazm berdi, biz bir chekkada osh eb olgandan keyin yashinmachoq oynadik, men sariqmoy, chakki sotiladigan kapon tagiga kirib, qapishib bekindim, hech kim topolmadi, bir-ikki chaqirishdi ham, tovush bermadim, qancha vaqt otdi, bilmayman, tōyxonada magnitofonning tasmasi tugadimi yo bolalar boshqa oyinga qiziqib ketib qoldimi, ishqilib, hammayoqni tim-tirs sukunat bosdi, balki bor shovqinni qalin suvalgan kapon otkazmay qoygandir, Hotambovoning uyidagi tōy sho'lalari ham bu yoqqa teskari, atrof sim-siyoh korinadi, jimlik quloĝimga botib, tom bitirgandek bōldi-da, yuragimga ĝulĝula tushdi: yashiringan joyimda yoqolib qolganman, boshqa yoqlardan izlab korishadi, osha yoqlardan ham topilmayman, ozimga ozim ham korinmayman, shu bilan tamom yoq, yoqolib ketganman, hammaning esidan chiqqanman, unutilaman, kaponning shu tor kavagida bir umrga qolib ketdim endi.

Gungurt kecha, oysiz osmon tagida kichkinagina bōlib qaltirab otirganim! Yolĝizlik ozim bōlib qoldim, ozimdan qorqdim. Bir sur bosdi! Kappondan otilib chiqib, yurak taka-puka, tōyxonaga – odamlar orasiga chopdim!

Shu chopishim bir umrlik ekan, bir umr odamlar orasida yashab, bir umrki ularga tomon yuguraman.

Tuĝilgan tuproĝimdan unib chiqdimmi, osibmi, nima bōlmasin, chiqib ketdim. Endi ona qishloĝimga faqat mehmonman, uzoqdan borib, yaqinlasholmay kelaman – ortamizni bōlib katta kokdaryo unsiz ayqirib yotadi konglimda.. Otolmay, ortanib qaytaman.

Buni bilgan biladi, bilmaganga bildirish juda qiyin.

Bultur yana bir joram keldi. Toshkentda ishi bor ekan, qoyar-da qoymay meni kochaga chaqirib oldi; maktabni u on bir yillik, men on yillikni, boshqa-boshqa sinfdan, birga bitirganmiz; universitetga bitta fakul tetga kirdik, men oldin, u bir yil keyin, lekin ijarada tort yil hamhujra turdik, qalin edik, uyga kelasiz, deb hargiz yalindim, kop yillar oldin bir-ikki qur kelgan, lekin bu gal oyoĝini tirab turib oldi,

olaman sattor, uyingizga bormayman, bormayman-chi, bormayman! Hayron bo'ldim, mayli, deb, o'glinga obor-chi meni, nima gap ekan, deb bilгим kelib bordim. Uchrashdik, ko'rishdik, qahvaxonada undan-undan sorashib, gapimiz singishgandek keyin, nimaga uyga otmayapsiz, devoringizni teskari urib qo'yan erim bormi, deb soradim. U birdan hurkdi, hurkib, anavi Lotin Amerikasi to'g'larida yuradigan guanako – lamaning beboshvo'g'iga oxshab boshini tik kotardi, “E-e, men uyingizga bormayman”, dedi. Bilmay konglini o'g'ritib qo'yanman shekilli, deb konglim g'ashlandi.. “E-e, j'ora, nima, menikidan ilon chiqqanmi?”, dedim. U osha balanddan tuya boqish qilib: “Yo'q, borolmayman! Odamlar, dost deb yuribsan, do'sting allaqachon o'zgargan, bitib ketgan, shunaqaki, uyidagi kursisiga ketingni qo'yishga botinolmaysan, deb aytishadi menga”, deb qoldi! Yerga urilgandek kozini olib qochgani g'alati boldi. Tavba, qimmatbaho kursi ham odamga nasog' bo'lar ekan-da! Men boy bo'lsam, sen j'oram, xursand bo'lish orniga... Turib-turib alam qildi, “Qanaqa kursi ekan?”, deb tishlandim. Xay, uyimga keling, deb ozim yalindim-ku! Asta'firulloh! Men yeb u quruq qolgandek! Uyimga borishga haddi yo'q, lekin oriyati bor, g'ururi baland, o'zini yer qildirib qo'ymas ekan. Haligi kursilarimga o'tirsa yer bo'lib qolar ekan-da. Ol-a! Men olmagan xotinning tu'gmagan bolasining tishi o'g'ribdi. E dost, shunday ekan, chaqirib olishga qanday haddingiz sig'di, dedim. Tushmaydi pastga! Po'cho'g'imsiz, ya'ni ikkovimizni noteng qilgan boyliklarimni kormay-kuymay, hu osha burungi holimda gaplashgisi kelibdi, osha maktabda birga o'qigan, ijarada bitta nonni bo'lib egan, xullasi, men o'zgarmagan kunlarni so'g'inibdi, yayrab gurung qurgisi kelibdi. Tavbangdan ketay! Boladay sodda odamlar hali ham bor-a!

Oldimizda kabob, gazaklar, u yarimta buyurdi, konglini yozish uchun, men, tobim yo'q, men ichmadim. Bari bir, qahvaxonaning ikkovimizga ham bir xil, bir tus kursilarida o'tirib ham gurungimiz qovushmadi. Uni esladik, buni, talabalik davrlarimizga bir-ikki tushib chiqdik, buklama karavotda yana cho'zildik, kilka egimiz kelib qoldi, bari bir, bitib ketsam ham o'zimni avvalgidek ko'rsatishga urinayotgan bo'ldimmi, yayramadik, shuning alamigami, u birdan o'zining kam emasligini pesh qildi: “E-e, men gurillab yashayapman, gurillab ketganman!”, dedi. Men bunaqa gurillab yashashning ma'nisini bilmas, menga bu nasib ham qilmas ekan. “Xay, gurillang! Bundan ham gurillang!”, dedim. Yo'q, bitib ketganim bilan buni tushunmas ekanman! “Siz endi shunday qoldingiz; o'zgarmaysiz, men oltita bolamning beshovidan qutuldim, hammasi uyli-joyli, bitta kichkinam bor, uni kollejga, bojxonanikiga joyladim. Uy, mol-hol, mashina – hammasi bor, roz'gorim badastur, lekin gurillaganim bunga emas, men qishloqda yashayapman, qishlo'g'imda gurillayapman, bildingizmi!”, dedi. Ha, gap bu yooda ekan: men har qancha bitgan bo'lmay, bu yerda gurillamayman, gurillay olmayman. To'g'ri, shu tobda to'g'ri qishloqqa haydab, ko'kraklarimni to'ldirib nafas olib, bir gurillagim kelib ketdi. Qani edi, G'aziraning ortasidagi baland dongtepaga chiqib, qulochimni kerib uchgudek bir qiyqirsam, necha-necha yillik siqintilarim tarqab ketarmidi! Lekin gurillab bo'lib nima qilaman, nuqul gurillab yurolmayman-ku, keyin, nima, hamqishloqlarimga vatanni sevish haqida ma'ruza gurillab yashaymanmi? Ularlarning meni tomosha qilishdan boshqa ishi yo'qmi? Xojalik dokoiida oynaga

namoyishga qoyib qoymasalar kerak, Toshkentdan kelib, mana, o'zimizda gurillayotgan hamqishlo'g'imiz deb.

Dostim joni achiganidan gapiribdi-da-ey, ko'chib borib bitta joy qilib qoyish, o'z odamlaring ichida yashashga nima etsin menga o'xshab, bu dunyodan hamma otib ketadi, hammasining joyi belgili, lekin sizniki...axir, o'ligingizni kim kotaradi, dedi, o'ligim bu yerda xor bo'ladigandek; joy tiklash menga chot emas, shuni qilay ekan. U azaldan o'zi gapirganiga o'zi mast, bir tutanib bersa, bosilishi qiyin. Tili shunga qayralgan. Shuning jaddiga ancha savdolarni ham ko'rdi-yu, lekin hozir eslatganning foydasi yo'q, mavrudi emas.

Men yon bergandek bo'ldim, gapimiz bolaladi, lekin tayinli to'xtami bo'lmadi, u gurillaganini dalillab turib oldi, men gurillamayotganimni boynimga oldim, nima desa ma'qul topdim. Xullas, u deb, bu deb boyligimsiz xolis otirishimizni yakunlab, bir umrlik dost bilan konglimda bir umrga xayrlashib, kira mashinada uyga qaytdim. Shu kallang bo'lsa, yo'q kursim ham ketingga hayf, dedim kelayotib. Taqdirni qarang, yaqin odamlar ham begonalashib ketar ekan. U emas, ko'proq men, unga emas, qishloqqa, Ğaziraga. Buni avvaldan anglab, oylansam ham, uncha qiynalmay yurgan edim, dostim oramizni uzil kesil uzdi-qoydi.

Gap qariyotganimda emas, qarisam ham ko'chada ham qolmayman, xudoga shukur! O'lingni kim kotaradi, kim seni tuproqqa qoyadi – bu gaplar ham kurakda turmaydi. Bu dunyoda odamning o'ligi beega qolishiga odamlarning o'zi qoymaydi. Gap, o'zani tobora chuqurlashib, kengayib, u qirg'o'gi borgan sari elaslak ketayotgan konglimdagi o'sha kokdaryoda, u yoqqa otishimga qoymaydi. Qidirib boraman, yuraman, kelaman, konglim bo'lingan koyi qolaveradi.

Ul'gayishim bilanoq Ğazira meni ba'gridan chiqarib yuborgan. Elkamdan itarib, ketyapsanmi, bor, o'sha yoqlarda kuningni kor, degan. Albatta, ona qishloq, tu'gilgan tuproq degan gaplar bor, lekin bular bola paytimda qolib ketgan, hozir bir narsa yozsam, tashbeh qilaman, xolos, borganimda ham olan toshagim beparvo, xolos, yaqin qarindosh, qolgan yoru birodarlarim ochiq chehra bilan kutib oladi. Bu ham belgili bir vaqtgacha, mehmon bo'lishga hatto ukang turgan o'z uyingda ham muddatlar bor, oy boyi tanda qurib olishga o'zim ham chidamayman, bosh quloq – bekorchi yo'q, hamma o'zi bilan o'zi.

Chiqib ketdingmi, endi kelib-ketganingda ham izzatingni bil, degan Ğazira, mehribon qishlo'g'im.

Hozir aytmasa ham, oldinlari borib turganlarimda aytgani uchun yaxshi bilaman. Shu-da qishloqdan chiqqan odamning kelib-ketish tartibi. Buni anglagunimcha o'ksinishlarim bor edi, ko'nikdim. Kop borar edim, oy otar-otmay oyo'g'im qishloqqa tortaverardi. Tok ochish, kotarish, xomtok qilishdan tortib, kesib ko'mishgacha zimmamda edi, ukamlar bilan pichan qilishga chiqardim, uy solinsa, ğishtini o'zim terib berardim. Porim kiyimimni echib, egnimga eski korjomalarimni ilib, loyga ham kirib ketaverar, ey, shu ishlar bilan dam olar, noqulay bo'lsa ham aytay, ustalda bosim otiradiganlarning kasalidan kamina benasib emas, o'sha ham bir kunda otib ketar edi. Lekin bunaqa yoqsil kiyinib, loyga botib ham

yurishlarimga, s z topolmayapman, ishqilib, odamlar, ha, bu bola shaharda buzilmagan, qobil, oqibati bor, shundan shu yoqqa qatnab uyidagi ishlarni qilib beryapti-ya, barakalla, deb qaramas, shu... yoqtirishmas edimi, “Iy-e, iy-e, sizga qoldimi bu ish”, deb taajjublanishlarida nimadir yozg rish ham bor edi.

Bir borganimda hamsoyamiz Ziyinat xolanikida tomsuvoq hasharga aytib qolishdi, ukam sahar turib Samarqandga ketgan edi, orniga  zim chiqishga cho landim.  rtada devor ham yo , u yoqda hashar b lsa-da, bu yoqda men sulaqmon sigaret sorib kirib-chiqib tursam, juda xunuk, bahonada kampirning duosini olaman, ham odamlar bilan tort o iz gurunglashaman degan oyda ustimni almashtirib, qolimga qishloqda yo , yarqillagan alyumin andava olib otlansam, oyim: “Hay, qayoqqa! Senga nima bor,  zi bir-ikki kunga kelgan odam, uyda  tirmaydimi!”, deb qoldilar. “Nima, hamsoya xolam bilan aytishganmisiz”, dedim. “Nimaga aytishaman, shuncha odam bor, b ladi-da. Sen  zingga yarashadigan ishni qil”, dedilar. Xullas, oyimga qolsa, bormasam. Har zamonda bir kelsam, eldan chiqib ketmay, odamlarning yonida b lay deb (bir konglimda  zimni korsatish), oyimga konmay, hasharchilarga borib q shildim. Hali ish boshlangani yo , Eshim kal loy pishityapti, Safar aka, andavasini tozalayapti, hamsoya xolamning nevarasi Nurali loyxonada labiga paqirlarni qator qilib teryapti, Ismat aka Eshim kalga loy pishitishdan aql beryapti, Olmos aka ish oldidan choyni bostirib ichyapti, Eshdavlat ayvon tomida, loy tortishga arqon shaylayapti. Borib jappa-jamoatga salom berdim, bir-bir q l olishga kirishdim. Sobir aka shoshib  rnidan turdi-da, q limni betimga qaramay oldi. Doim quyuq sorashadigan odam, “Ha, yaxshimisiz?” deb andavamga qaradi, xolos. Ismat aka kelib, q l berdi-da, bir nimalar deb  irmaydi. Olmos aka q lini k ksiga qoyib, kelib k rinish shart emas, choy ichyapman degan imobashara bir qiliq qildi. Eshdavlat tomida turib q lini k tarib q lini k tarib qutlagan b ldi. Nurali, hali yovvoyiroq, salomlashishga uquvi yo . Xullus, nima desam, shu... hasharchilar orasiga borib q shilgan b lsam ham u tomonida ular qimirlab turgan korinmas devorning bu tomonida otolmay qolaverdim, hech birovining chehrasi ochilmadi, hammasi u-bu  uldirab, k zini olib qochdi, to ri qaraganining nigohi ham yonboshimdan otib ketdi. Hech birovi yukimizning bir tomonini k taradigan keldi deb xursand b lmadi. Meni bu odamlarning hech biri yomon k rmaydi, aksincha, lekin shu damda, shu hasharga kelib q shilganim bilan oralariga kirolmadim. Tushunib turgandirsiz?

Keldimu endi qanday ketishimni bilmay arosatda, andava tortaman, deb tomga chiqib ketdim. Tomning u yer-bu yerini qaragan, tushib qolgan mayda tosh-posh, kesakchalarni tergan b ldim, dilam-nodilam, yana bir ketib yuboray dedim, endi noqulay, ishdan qochdi deb oylashadi.

Tom suvashni boshladik. Bu ish shiddat bilan ketadi, b l-ha-b l, loy -choy-suv, h  Eshim,  orasha chiqyapti, bo bir pishiting, Nurali, anqayma, ey Olmos, havolating siltamay, ustunga urilmasin; Safar akaning andava tortishimga gap topolmay sinchilashini aytmasa, menga boshqa e'tibor ham b lgani yo . Ikki andavakashga loy etkazaman deb  rtada Nurali bechora pishib ketdi. Katta tomni b ldik, o il, bostirma tomni ham suvadik, hojatxonaga kelganda Safar aka chiqdi, men

andavamni yuvib, ketishga choʻklangan edim, Ziynat xolam sezib qoldi: hay, bolam, katta boshingni kichik qilib kelibsan, baraka topgur, endi bir choqim oshimni emay ketasanmi, unday qilma, bolam, xullas, oshga oʻtirmay ketishning iloji boʻlmadi. E bor-e, shu tort paqirgina ham ortmasin, deb tandirning usti ham suvab tashlandi.

Ha-a, zor boʻldi, e-e, bu ish kop bilan-da, ha endi Ziynat xolaning yoʻgingarchilikda bir dardi aridi, suvoqning obravlari yaxshi, chakka oʻtkizmaydi, bir paslik yugur-yugur, jonni suʻgurib oladi-ya – qilgan ishimizdan oʻzimiz taskin topdik, gapga men ham ham suqma qoshiqdek suqilib turdim, lekin, bari bir, el boʻlolmadim, yana turib ketishni oyladim. Olmos aka kampir damlagan oshni katta laganga bosdirib keldi, ustida ikki tuyur gosht. Hay, endi turib ketsam, kampirning oshini kongli tortmadi, deyishadi. Olmos akaning orqasidan Ziynat xolaning ozi keldi, qolida bitta sarʻgish suvli shisha bilan. Ismat aka besaranjom tipirchilab, menga tirjayib qarab qoydi. Safar aka oʻgʻzini qoʻli bilan artib, koʻrpachaga bemalolroq joylashdi. U ham menga bir qarab qoydi. Keyin qovoq uyib gosht toʻgʻrashga tushdi. Eshim kal yer tagidan shishaga homraydi: bitta aroq etmas-v. Bir Eshdavlat menga qarab xursand im qoqdi, shunchaki ichkilik kelganiga ochilib. Kampirning sandiʻgida yotaverib sarʻgaygan bu narsa aroqmi yo... deb tursam, rostdan “Persovka” degan aroq ekan, dasturxon atrofida gilarning sinovidan oʻtgan choʻgi, hali ichmaslaridan kayflar choq, menga oʻqtin-oʻqtin nazar tashlab qoyishlari sababi ham ma'lumdek – loy ishidan chiqqan besh kishiga bitta shisha... “Ha, xola – mard!”, dedi Safar aka. Olmos aka shishani Ismat akaga uzatib: “Oz-ozdan suzasiz, momomniki tabarruk”, dedi. “Shu – bittami?” deb Ismat aka yana menga qarab qoydi. “Yoʻq, men ichmayman”, dedim. “Bizlar bilan ichmaysizmi?”, dedi u, menga pisanda qilayotgandek tuyuldi. “Momom baquvvat, buni ichaylik, yalinsak taxmonning orqasiga yashinib qolgani ham chiqib qolar”, deb Olmos aka bilib tamshandi. Ismatning akaning chehrasi yorishgandek boʻldi, “Ha, endi, bizlar bilan ham oʻtiring-da”, dedi menga. “Loy ishi – zax ish, shuni oladi bu qalampir aroq”, dedi Safar aka, loy ishi qilmagan odam buni bilmaydi degan ma'noda. “Oladilar, Safar aka, oladilar”, dedi Eshdavlat. “Oʻzimizning odam, nimaga bizlar bilan olmas ekan, oladi”, dedi Olmos aka.

Ismat akaning aroq suzishlari, betini tirishtirib iljayishlar, menga uzatganda dimdim nigohlar, ichishdan oldin bor gunohni zaxga tonkashlar, hi-hi kalta kulgilar - hammasi men boʻlmaganimda bularning bemalol, yayrab oʻtirishini bildirar edi. Umuman oʻzimga qozonimga tushmabman, oyim dono gap qilgan ekanlar – yarashmagan ish boʻldi.

Hammasi qoni-qoʻshnilarim, faqat kampirning jiyani Ismat aka dongdan tushgan, bari bir, bitta qishloq, begona yoʻq, hech kim menga yomon gapirmadi, hech kim bilan aytishmadim, qoyar-da qoymay bir piyola ichirishdi ham, lekin osha devor devorligicha turaverdi, bular u yoqda, men bu yoqda.

Nimada xato qildim desam, hammasi – hasharga qoʻshilish oʻyidan boshlab kelib qoʻshilishimgacha, qoʻshilib andava tortishgacha, birgalashib aroq ichishgacha,

ichida chayon olganmi, yomon achchiq ekan bu ham, o'zimni zorlab gurung berishga urinishimgacha, bari yarashmagan, bu yerga, bu davraga qovushmagan edi. Chuqur qilib tushuntira olmayapman, lekin boshingizdan otgan bolsa, shu aytganlarimdan ham anglaysiz - Ğazira meni bağridan chiqarib, begona qilib yuborganini!

Kop misollar keltirsam boladi, lekin barining tagida u-yoki bu taxlit bitta gap yotadi.

Mening dardim kop, dardlarim sizib tushib, jilğa-jilğa o'sha kokdaryoga qoshiladi, Ğazira kokdaryodan kokka burkanib turaveradi. Qushi kop edi uning, shu qushlari ozod edi, tongda organmagan odamning quloğini qomatga keltirardi. Bolaligimda bir qushning uzun hushtagini har kuni eshitardim, o'zim ham qoshildim, hushtagini qaytarsam , u ham qaytarardi, keyin bilsam, kitoblarda kop o'qib, bir korsam deb orzu qilganim bulbul shu, hozirlari juda kopaygan, basma-basiga sayroği qishloqni bosar ekan. Olamga chaqirar edi bu qushlar.

Ğazira o'sha kunlarimni korgan, bari uning beparvo-palak bağrida kechgan. U hozir... yukunib men boraman, u esa kelding ham, ketding ham demaydi, birdek kokligi, kokligida o'sha shivirlar, xayr, qarib kesilgan daraxtlari orniga ulardan ertak tinglagan kechagi nihollari qad rostlagan, yo'llar hali-hanuz quyuyq soya, musichalari ğu-ğuvlaydi, qumrilari kukkulaydi, ertalablari bulbul hushtagi yaratganga sano aytadi, - o'sha keksa mashq oğushidagi yashil maskanim, - men ham kopni korib qoydim, ozida shuncha korsatib, yana soğintirgani uchun aytadiganlarim bor, lekin tuz haqqi qoymaydi. Sevsang meni shundayimcha sevasan, yoq esa, bari bir, ana, boshingga oftob urmasin ketayotganingda deb, katta koçhamga kolanka solganman, deydi va bolaligim tengi bolalarning mehnatiga, bular ertaga katta odam bolarku demay, kokdan toqigan torini keng yoyib turaveradi.

Ufqning hu chetigacha parda tortgan kechki ğubor tagida kop bedilliklar bor hali, eshakka ot ortib daladan kelayotgan, poda qaytishini kutayotgan, chingalak surayotgan bolalarning qiyqiriqlari ezgin, ayollarning kongillaridan sizib chiqayotgan hasrat alyorlari hali hamon barglarga ilashadi, ular kirib ketganda alyorlar barglarda qoladi, barglarning har biri ularni ozicha pichirlab korib, keyin bir-biriga uzatib, shivir-shivir shabada gurungiga qoyishadi, shanği qarğishlar koçha tuproğiga tushib, gard bilan yoqalashadi, yarim oqshomgacha beibo daydiydi, chang kotaradi, tinch yotgan odamlarning tinchiga kunchilik qiladi, yaxshilab oylasangiz.. Mana, Ma'qul xola bilan Bobili yanga shu qari tolning tagida aytishgan, ikkovining tili yomon, bir-birini xop tuproqqa qorgan, qarğashdan boshqa nimaga ham kuchlari etadi, katta koçhada yulishmaydi, qishloqchilik, manjashganlari ozlarining esidan chiqib ketgan, lekin, mana, tagidan shu ikki xotin otsa, otgan qarğishlardan tolning barglari mujmayadi.

Oylab qarab, shu barglarda soğinchlarim ham ilashib turganini koraman.

Ha, shu, men ham, soʻginch ichidan qarayman. Ğaziraning bemehrliĝi – mehr, bari bir, meni katta qilgan, katta yoʻlga kuzatgan, shu yerning bolasiman, – bolaligimdan yukunib salomda kelaman...

Luĝat varaqlashdan shuncha gap chiqib ketdi! Luĝatdan chiqib bu kirib keldi, bolaligimdan kerak-nokerakni eslatdi, men zavq qildim, oksindim, oyga choʻmdim, uning gapi tugamadi, bor kinlarini tokib soldi, unga qarab otiraverdim xotiralarning ichida, oʻzi aralashmasa yaxshi boʻlardi deb...

Aralash quralash kop narsani ortib kelganiga boshda nima degani esimdan chiqayozibdi – maqollarga e'tiroz bildirayotgan edi-ya. Jon, jaydari desam, juda aytishqoq ekan, u desam, u deydi, bu desam, bu, oxiri xunobim oshdi. Nima, axir, bitta men eshak minibmanmi, qishloqda katta boʻlgan barcha, hatto qizlar ham, u paytlari birda-yarim xotinlar ham, dashtlarda kampirlar ham mingan. Hamma qolib bu nimaga meni topib oldi? Keyin, maqol, hikmatli soʻzlarni men oʻylab chiqarganim yoʻq, kopchilik toʻqiganmi, javobini ham koplashib bersin-da. Bolaligimni boʻlsa, kim nima desa, desin, yashab oldim.

- Xoʻosh, - deb yana oʻzimni bosib, yotiĝi bilan gapirishga otdim. – Oʻzingni har narsa deb xayol qilib, shundan xulosa chiqaraverma. Eshaklik ishlaringga men aralash emasman.

Murosa qilib, maqolda aynan oʻzi emas, balki uning misolida eshaktabiatlar nazarda tutilgani, buning uchun xafa boʻlishga sira asos yoʻqligi, aksincha, odamlar shundan oʻzlariga xulosa chiqarib olishi kerakligini tushuntirmoqchi, hatto kelib otmish gaplarni eslatgani uchun rahmatlar ham aytmoqchi boʻlgan edim, u gapni burib yubordi:

- Ot ham hayvon toʻgʻrimi? – deb soradi.

Shunaqa ham oddiy savol beradimi, yo oʻzini merovlikka solyaptimi deb oʻylab:

- Ha, ot ham hayvon, - dedim-u, toʻxta, bundan bir gap chiqarmasin deb: - lekin othayvon, - deb urĝuladim.

- It-chi? – deb soradi yana eshak.

- Ha, koppakmi, u ham hayvon, lekin u boʻri oilasiga kiradimim yo boʻri bularning oilasigami, ishqilib, tubi bir, lekin hozir uy hayvoni-da, - deb ilmiyroq javob qildim.

- Mushuk-chi? – deb soradi eshak.

E-e, bular azaldan kelishmaydigan edi, nimaga uning hamma savoliga javob topishim kerak deb, sal jerkib berdim.

- Nima demoqchisan oʻzi, hamma hayvonlarga kunchilik qilasan? Odamdan boshqa hammasi hayvon! Nima xusumating boʻlsa, borib oʻziga ayt, mutasaddi emasman senga. Qara, “Eshakning mehnati halol goshti harom” emish, eyishmasa, goshtimni nima yomonlashadi, deysan. A bu odamning mehnatini qadrlash haqida bir hikmat boʻlsa! “Eshak eti ĝosht boʻlmas, savdogar hech doʻst boʻlmas” deb,

etimni noinsof savdogarlarga muqoyasa qilish adolatsizlik deysan yana. Yoq yerdan ozingni xafa qilyapsan. Senga birov dost bo' deyaptimi? Ochiği, men ham senga bolaligimda dost deb qaramaganman, azob ham berganman. Lekin bahorikordan uch qanor somonni sen turganda ozim kotarib kelmayman-ku. Mayli, osha kunlarni olib kelganing, bari bir, yaxshi, ammo u paytlari hikmat nimaligini men ham bilmaganman. Qolimdagi qirmizi luğat osha paytlari chiqqan, bosilgan yili mana, ellik toqqiz, otgan asrning ellik toqqizi. Hozir ham oqib, seni ko'p no'rin misol qilganlarini ko'ryapman. Masalan, "Eshakni betamizligidan eshak deyilar" deb yozilgan, tavba, eshakning tamizligiyu betamizi boladimi, men ham farqiga bormayman. Endi, bu maqollarning barini otam zamonida, eshak ko'p payti oldingilar aytgan, ularga ham necha asr burun otib ketganlardan qolgan, endi topib borib, ozlaridan nimaga bunaqa degansizlar, deb sorashning sira-sira iloji yoq. Qaysi hayvonning hayvon yo hayvon emasligi masalasini qozgashga kelsak, sen shu galvani ko'zlab turibsan shekilli, bu ham sira kerak emas. Hammasi ham oz orni, oz joyi, oz a'moliga kora yashab yuribdi hayvonligini qilib. Shuning uchun ko'y bu qitmirliklarni, - dedim, uzoq gapirdim, siltab tashlasam ham insofdan emas.

Siz ham luğatni bir varaqlab ko'ring, eshak haqida rostdan ham misol ko'p. "Eshak minganning oyoği tinmas, ikki xotinlikning – quloği" degan gapning unga nima aloqasi bor, mingan odam ustingda ikkita oyoğini osiltirib yurishini aytmasa, aniq boğlanadigan mantiq yoq.

- Men shu hayvonlik qilmasliklarini aytyapman, - deb eshak gapimni eshitmayapsiz degan ma'noda quloğini salanglatdi. – Ot otligini qilmaydi, it itligini unutkan, mushuk odamlarning uyida yashab, sichqon ovlashdan or qiladi, a, ishiku shu! Ot ishlaymaydi, har zamonda bir poygada chopib maza qiladi, ko'pkariga chiqadi – bo'ldi! Saysxonalarda kok beda-emni urib, bekor turaveradi, qashloğichigacha bor! It egasinikini qoriqlashi kerak, u esa hatto oğriga hurishni ham bilmaydi, lekin uydan joy olgan, suyuq sovunlarda chomiltirib, junini taroqda taraydilar. Bu qanaqasi! Dangasalarning dangasasi mushuk, kongli tusasa miyovlaydi, odamga ozini siypatadi, bo'lmasa shu ham yoq. Bekorchiligidan ozini qayoqqa qoyishni bilmay, tomlarda daydiydi. E-e, tavba, odam hayvonning xizmatida-ya! Odam-a! Mana, chochqani olaylik...

- E qoy, gapirma shuni, men yomon ko'raman, - dedim irganib.

- Mayli, gapirmayman. – dedi bari bir gapirgisi kelib. – lekin, bilmayman, ozini nima deb oylasa, jonining rohatini topgan, bokib eydi, balchiqqa botadi, yana eydi, yana balchiqqa kiradi, ishqilib, xarish tonka-da, odamlarni oziga ishlatadi. Haq yerini topgani shumi! Hayvonligini unutkanlar yana bor-u, sanasam, hasaddan gapiryapti, ozi shunday bololmaganining alamidan deb oylaysiz.

Bu qanaqa eshak ozi? Ali desang, bali deydi!

- Menga qara, - deb yana sal siltadim.- Sen ot bololmaysan, koppak ham, eshaksan, lekin orningni bil, ozing uchun harakat qil. Aytib qoyay senga, bu maqolda yoq – eshaklikni ham ko'rsatish kerak.

- Ishlayapman-ku ertayu kech, - deb hayron bo'ldi u, nihoyat-e, gapim etib bormadi.
- Ishlash boshqa, kurashish boshqa. Ertayu kech ishlaganing bilan bu hayotda orningni topmasang, eshak ham bo'lolmaysan, - deb keskin gapirdim, keyin rahmim keldi. – O'zingni himoya qilishni bilmaysan, misol uchun, borini korsang, bo'ldi, taqqa qotib, som gosht bo'lib turaverasan.
- Iy-e, ilojim qancha: men – eshak, u – bori, - dedi eshak ma'yuslanib.
- Hech bo'lmasa, tepin. Shuni ham qilolmaysanmi? - dedim.
- Ho-o, jahli chiqib ketsa-ya, - deb eshak hurkib ketdi.
- Bari bir yorib ketadi-ku seni! – dedim bo'g'ilib; bu galvarsga bir narsani uqtirib bo'ladimi o'zi!
- E-e, mendan buzgunchi chiqmaydi, - dedi eshak kallasini solintirib. – Har xil yo'lga boshlab, eshaklikdan chiqarib yubormang meni. Shu eshakligim o'zingga mos, qulay.
- Chiqmaysanmi eshakligingdan? - dedim bo'g'ilib.
- Nima qilaman chiqib? Ming yildan beri shundayman, shundayligimcha qolaman, deb hangrab yuraman.

Ana xolos, bu oylaganimdan ham qaysar chiqib qoldi-ku!

- Yuraver shunday! Bo'lishing shu bo'lsa, seni bori tugul kuchuk ham g'ajib ketadi, - dedim.

- Shunchaki yurganim yo'q, eshakligimni qilib yuribman, - dedi eshak gapimni qaytarib.

- Xop, shu eshakliging nimadan iborat ekan? - dedim bo'g'ilib.

- Eshakligimmi? – deb gapimni takrorladi ekash. – Eshakligim – tinim bilmay ishlayman, hamma ishga chidayman, keyin chidab ishlaganimga o'ziga tasanno aytib yashayman.

- Tasannong nima? – deb hayron bo'ldim.

- O'zingga tasanno aytaman – hangrayman, - dedi eshak kallasini kotarib.

Gap topilmay qoldi. Nima ham deyman? Eshak kallasini bilan shu gapni aytib turibdi.

- Faqat meni bemalol hangrashimga qo'yib beringlar, - deb eshak faqat menga emas, kopchilikka gapirdi. – Nimaga meni odamning yomonlariga tenglashtirasizlar, axir, men bor-yo'gi eshakman-ku! Eskijuvalaring bilan nima ishim bor!

Ana shu yerga kelganda tilim tutilganidan jahl bilan qalamni sindirib qoydim; attang, attang, yumshoq yozadigan, jumjalarning tagiga chizishga juda yaxshi edi.

- E bor! Ana, tinmay ishla, ishingga besh ketib, tinmay hangra, - dedim.-
Mehnatdan boshing chiqmay o'zingga tasanno aytishdan toxtama.

Men kinoya qilib aytsam, bu tushunmadi.

-Rahmat! – dedi. – Aytmagan gaplarimni ham tushundingiz. Meni har nimaga teng qilib, har yo'lga boshlamadingiz.

Sizga qanday bilmadim-u, lekin bu bilan gaplashaman deb o'zinning ham aqlim tomtog'lashib, tezroq qutulishni istab qoldim.

-Bopti, bopti! Tushungan bolsang, endi jona! – dedim.

Endi eshak ajablendi:

- Qayoqqa ketaman, siz bilanman-ku, - dedi.

Hu boshdagidek yana angraydim, kallam ishlamay qoldi.

- Qanaqasiga men bilansan?

Eshak xuddi kulgandek irshaydi:

- Doim birgaman siz bilan - kitobingizdan chiqdim-ku!

Siz bir narsaning ma'nisiga bordingizmi? Men shu ma'nini topolmadim. Kitobni, shu qirmizi lug'atni pop etib yopib qoydim. Yarmi tishlangan parra qazi ham xor boldi.

Kop oyladim, bolaligimga necha bor tushib chiqdim, u yoqdan ham tasanno aytadigan gap topolmadim.

O'zimcha taxmin qildim: nima edi bu eshak: jaydari, qosqi, qaysar, mayli, boshqa nimalarga oxshatmay, o'zi shuni soradi, ammo dunyodagi jami eshaklarga misol qilsa bo'ladigan - eshaklarning eshagi, hali eski tilimizda aytiladi-ku, shohul shahanshoh degandek, eshagul eshak edi.

Lekin kitobdan chiqdim deb, meni xotiralarga komib eshak chor chopini kir qilib ketdi.

Yuvsan ketarmikan?

Hozirlari yana oylasam, qishlo'g'im mendan norozi ko'kliklarini uyub qarayotgandek bo'laveradi: yana nima qarzlaring qolgan ekan? Bo'lmasa, nimaga bu eshagi kelib yuribdi?

2011-2012 y.